

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida  
UDK 4.494.322 o‘zb.-4*

**Abdullayeva Oqila Xolmo‘minovna**

**YORDAMCHI SO‘ZLARNING SUBSTANSIAL-PRAGMATIK  
XUSUSIYATI**

5A120102 - Lingvistika (tillar bo‘yicha)

Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:  
**B.R.Mengliyev,**  
filologiya fanlari doktori, professor

Toshkent – 2014

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3-7
<b>I BOB O‘ZBEK TILI LISONIY IMKONIYATLARINING NUTQIY VOQELANISHI</b> .....	8-17
<b>1.1.</b> O‘zbek tilshunosligi jahon tilshunosligi taraqqiyoti ko‘zgusida.....	8-12
<b>1.2.</b> O‘zbek tili lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi tadqiqi tilshunoslikning yangi empirik bosqichi sifatida.....	12-15
<b>I bob</b> bo‘yicha xulosa.....	16-17
<b>II BOB. YORDAMCHI SO‘ZLARNING LISONIY SATHDAGI TAHLILI</b> .....	18-39
<b>2.1.</b> Yordamchi so‘zlarning umumiy grammatik ma’nolari.....	18-25
<b>2.2.</b> Yordamchi so‘zlar lisoniy tizim yaxlitligida.....	25-37
<b>II bob</b> bo‘yicha xulosa.....	38-39
<b>III BOB. YORDAMCHI SO‘ZLAR SUBSTANSIAL IMKONIYATLARINING NUTQIY VOQELANISHIDA LISONIY VA NOLISONIY OMILLAR HAMKORLIGI</b> .....	40-76
<b>3.1.</b> Ko‘makchilar substansial imkoniyatining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi .....	42-50
<b>3.2.</b> Bog‘lovchilar substansial imkoniyatining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi .....	50-66
<b>3.3.</b> Yuklamalar substansial imkoniyatining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi .....	66-74
<b>III bob</b> bo‘yicha xulosa.....	75-76
<b>UMUMIY XULOSA</b> .....	77-81
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	82-86

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Davr va fanlarning taraqqiyoti tadqiqotchilar zimmasiga har doim yangi mas'uliyatni yuklaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda erishilgan milliy istiqlol va jamiyatda yuz bergan ma'naviy-mafkuraviy o'zgarishlar fanlar, xususan, o'zbek tilshunosligi kabi milliy fanlar oldiga muayyan talablarni qo'ydi. Ma'lumki, tilda, chunonchi, uning grammatik qurilishida ham, millat ruhiyati aks etadi. Prezidentimiz «Ona tili – millatning ruhidir» iborasini bejiz ta'kidlamagan edilar. Istiqlol sharofati o'laroq, o'zbek tili hodisalarini uning substansial tabiatidan kelib chiqqan holda tekshirish o'zbek milliy ma'naviyatini o'rganish, milliy mafkura va milliy g'oyani targ'ib qilishning ko'rinishlaridan biriga aylandi. Bu esa o'zbek tili grammatik hodisalariga ham unda milliy ruhiyat aks etgan mavjudlik sifatida yondashishni taqozo qiladi. Bu – birinchidan. Ikkinchidan esa, grammatik hodisalarni o'rganishning yangi bosqichiga ko'tarilish, ya'ni grammatik hodisalarni o'zbek tilshunosligidagi lisoniy tizim yaxlitligi qonuniyatidan kelib chiqqan holda turli umumiyliklar majmuidan iborat butunlik sifatida tekshirish, grammatik ma'noni tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganishni, ularning nutqiy voqelanishini lisoniy va nolisoniy omillar yaxlitligida o'rganishni taqozo qiladi. Bu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** O'zbek tilshunosligida tadqiq etilgan yordamchi so'zlar hisoblanmish ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar ishning obyekti hisoblanadi. Shu til birliklarining substansial-pragmatik xususiyatlari ishning predmeti sanaladi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** O'zbek tili yordamchi so'zlari umumiy grammatik ma'nosi murakkab tarkibli bo'lib, unda hodisaning substansial mohiyati bo'lgan kategorial ma'no bilan birgalikda boshqa yondosh va hamroh ma'nolar qorishgan holda mavjud ekanligini, bu umumiy ma'noning nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorlik qilishini asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

-o‘zbek tilshunosligining taraqqiyot bosqichlarini jahon til ilmi rivoji fonida baholash;

-lisoniy ma’noning nutqiy voqelanishini tekshirish tilshunoslikning yangi empirik bosqichi ekanligini dalillash;

-yordamchi so‘zlar umumiy grammatik ma’nosi tarkibi kategorial, yondosh va hamroh ma’nolardan iborat bo‘lishini asoslash;

-yordamchi so‘zlar umumiy grammatik ma’nosi nutqiy voqelanishini lisoniy tizim yaxlitligi nuqtai nazaridan yoritish;

- yordamchi so‘zlar umumiy grammatik ma’nosi nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligini tavsiflash.

### **Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:**

1. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi jahon zamonaviy tilshunosligining ikkinchi bosqichida shakllandi va unda bir vaqtning o‘zida qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur yondashuvlar rivojlandi.

2. O‘zbek tilshunosligi lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishi muammosi bilan shug‘ullanayotganligi sababli u o‘zining navbatdagi empirik bosqichiga qadam qo‘ydi.

3. Yordamchi so‘zlar umumiy grammatik ma’nosi “sintaktik vazifadan nosintaktik vazifaga” belgisi asosidagi darajalanish bo‘yicha guruhlanadi va bu qator “ko‘makchi-bog‘lovchi-yuklama” ko‘rinishida bo‘ladi.

4. Yordamchi so‘zlarda grammatik ma’no tarkibi turlicha. Ko‘makchilarda kategorial ma’no faqat “tobelash”, yondosh ma’no birikuvchi so‘zlarning ma’nosiga bog‘liq ravishda juda ko‘p bo‘lib, hamroh ma’no sifatida ularning uslubiy xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin. Bog‘lovchilarning bir guruhida “tobelash”, boshqalarida “tenglash” kategorial ma’no hisoblanadi, yondosh ma’no birikuvchi so‘zlarning ma’nosiga bog‘liq ravishda ko‘pdir. Hamroh ma’no esa ularning uslubiy ma’nolaridir. Yuklamalarning kategorial ma’nosi “kuchaytirish” bo‘lib, yondosh ma’no sifatida “subyektiv munosabat”ni ajratish mumkin. Hamroh ma’no sifatida tobelash va tenglash sintaktik ma’nolari namoyon bo‘ladi.

5. Yordamchi soʻzlarning nutqiy voqelanishida sathlar hamkorligi turli darajada boʻladi. Ularning umumiy lisoniy maʼnosi voqelanishida asosan sintaktik sath yetakchilik qilib, leksik sath unga hamkorlik qiladi.

6. Yordamchi soʻzlarning umumiy maʼnolari voqelanishida lisoniy omillarga nolisoniy omillar hamrohlik qiladi.

**Mavzu boʻyicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** Oʻzbek tili grammatik tizimini oʻrganish oʻzining uchinchi bosqichiga qadam qoʻymoqda. Oʻrganishning birinchi bosqichida formal-mantiq metodologiyasiga tayangan holda tasviriy metod asosida grammatik kategoriyalar belgilanib, bu tushuncha ostida, asosan, morfologik kategoriyalar va qisman sintaktik kategoriyalar, yordamchi soʻzlar tadqiq etildi. Grammatik (morfologik) kategoriyalar borasida ularning turlari ajratilib, har biriga xos shakllarning bir tizimga solinganligi, shakllar ifodalaydigan, matn va qurshovda namoyon boʻluvchi turli-tuman nutqiy maʼnolar aniqlanganligi va tavsiflanganligini taʼkidlash lozim. Yordamchi soʻzlar tizimi aniqlanib, ularning leksik va grammatik tizim sirasidagi oʻrni, yordamchi soʻzlarning maʼnolari, sintaktik vazifalari tadqiq etildi. Bunda A.N.Kononov, A.Gʻulomov, Gʻ.Abdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, T.Rustamov kabi tilshunoslarning xizmati katta boʻldi va yaxlit grammatik taʼlimot yaratildi. Nomlari zikr etilgan olimlarning tadqiqotlari asosida formal oʻzbek akademik grammatikalari, oliy va oʻrta taʼlim boʻgʻinlari uchun darslik hamda qoʻllanmalar vujudga keldi.

Grammatik hodisalarni oʻrganishning ikkinchi bosqichi bevosita oʻzbek tilshunosligiga dialektik mantiqning metodologik asos sifatida tatbiq etilishi hamda til tizimida lison va nutqning izchil farqlanishi bilan bogʻliq. Bunda grammatik kategoriyalarning umumiy, xususiy va oraliq grammatik maʼnolari, shakllararo oppozitiv munosabatlar oʻrganilib, oʻzbek tilining substansial morfologiyasi yaratildi. Bu borada S.N.Ivanov, A.Nurmonov, H.Neʼmatov, N.Mahmudov, Gʻ.Zikrillayev, Sh.Shahobiddinova, Z.Qodirov va ular izdoshlarining ishlarini alohida taʼkidlash lozim. Biroq oʻzbek tilshunosligining substansial bosqichida yordamchi soʻzlar maʼlum darajada eʼtibordan chetda qoldi. Bunda faqat

H.Ne'matovning bu masalaga yozma yodgorliklar misolidagi yondashuvini ta'kidlash lozim.<sup>1</sup> Yordamchi so'zlarning substansial va pragmatik xususiyatlarini alohida-alohida tizimlar sifatida tadqiqotchi A.Pardayev tomonidan o'rganilganligi e'tiborga molik.<sup>2</sup>

**Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiq usullari.** Til dalillariga nazariy yondashuvning metodologik asoslari bo'lmish dialektik mantiq hamda dialektika kategoriyalari, tasavvufning gnoseologik ta'limoti, xususan, uning substansiya (zot) va aksidensiya (tajalli), juzv va kull kabi tayanch tushunchalari asosida ish ko'rish tadqiqotning falsafiy bilish yo'llari hisoblanadi. Tadqiqot lison va nutq hamda me'yorni izchil farqlaydigan sistem tekshirish, komponent tahlil usullari asosida bajarildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot grammatik kategoriyalarning lisoniy tizim yaxlitligi nuqtai nazaridan tavsifini berish, umuman olganda, har qanday lisoniy birlikning lisoniy qiymati murakkab mohiyat sifatida turli boshqa umumiyliklarning sintezi sifatida mavjud bo'lishi qonuniyati nuqtai nazaridan tekshirish uchun namuna vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalaridan o'zbek tilshunosligining morfologiya sohasi bo'yicha darslik va qo'llanmalar tuzishda, maxsus kurslar yozishda, shuningdek, akademik grammatikalar yaratishda foydalaniladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

-o'zbek tilshunosligining hozirgi holati ikkinchi empirik bosqich ekanligi asoslandi;

- yordamchi so'zlar umumiy ma'nosi tiklandi;

- yordamchi so'zlar lisoniy mohiyatida kategorial, yondosh va hamroh ma'nolar yaxlitligi tavsiflandi;

- yordamchi so'zlar umumiy ma'nosining nutqiy voqelanishida sathlar hamkorligi yoritildi;

<sup>1</sup> Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв.-Т.:Фан,1989.-191с.

<sup>2</sup> Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. – Тошкент: Фан, 2013. 262-Б.

-yordamchi soʻzlar umumiy maʼnosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi bayon etildi;

**Natijalarning eʼlon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi yuzasidan OʻzMU talabalar, magistr va tadqiqotchilarning ilmiy-amaliy anjumanlarida maʼruzalar qilingan.

Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 3 ta bosma ishda oʻz aksini topgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi.** Dissertatsiya hajmi Word dasturi Times New Roman shriftining 14 kegel kattaligida ....bet boʻlib, Kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

## **I BOB**

### **O‘ZBEK TILI LISONIY IMKONIYATLARINING NUTQIY VOQELANISHI**

#### **1.1. O‘zbek tilshunosligi jahon tilshunosligi taraqqiyoti ko‘zgisida**

Har bir jamiyat fani oldiga o‘ziga xos va muayyan talablarni qo‘yadi. Bu jamiyatning taraqqiyot darajasi, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydigan ustuvor sohalarda yetilgan va yechimini kutayotgan muammolar asosida vujudga keladi. Fanning har bir sohasi esa bu muammolar tizimida o‘ziga tegishli masalalarni, undan kelib chiqadigan maqsad va vazifalarini aniqlab, mavjud ilmiy-texnologik salohiyatni unga yo‘naltiradi, muammoning yechimiga olib keladigan samarador va qulay metodologik asoslarni hamda tadqiq usullarini tanlaydi.

Tarix silsilasida o‘ziga xos o‘rin va ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zbek tilshunosligi fani ham turli davrda har xil muammolar bilan shug‘ullanib, tarixiy taraqqiyotga o‘zining munosib hissasini qo‘shib keldi. Qimmatli ilmiy tadqiqotlari bilan har bir davrning ijtimoiy ehtiyojlari qondirilishida faol qatnashdi qatnashmoqda.

Jahon zamonaviy tilshunosligi qariyb uch asrlik taraqqiyotga ega bo‘lib, har bir davr o‘z fani oldiga ijtimoiy zaruratdan kelib chiqqan holda tegishli vazifalarni qo‘ydi:

1. Til sistemalarining kelib chiqishi va farqlari.
2. Til sistemalarining strukturasi va imkoniyatlari.
3. Til sistemalaridan amaliy foydalanish muammolari.

O‘zbek tilshunosligi jahon tilshunosligi taraqqiyotining ikkinchi bosqichida unga qo‘shildi va u ham o‘z o‘rnida o‘tgan asrda o‘ziga xos maqsad va vazifalarga ega bo‘lgan ikki bosqichni bosib o‘tdi:

1. Formal yondashuv bosqichi adabiy til meyorlarini ishlab chiqish va omma ongiga singdirish zarurati asosidagi ijtimoiy vazifani ado etdi va 1981-yilda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni yaratish bilan o‘z faoliyatiga, umuman olganda, yakun yasadi.



2. Struktur yondashuv bosqichi o'tgan asrning 90-yillarida shakllanib, istiqlol tilshunosligi nomi ostida o'zbek tilining immanent imkoniyatlarini ochishdan iborat ijtimoiy buyurtmani ado etdi. Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrigacha tilning ichki sistemasi muammolari atroflicha o'rganildi. Bunday ulkan yutuqlarni umumiy tilshunoslik doirasida ham, xususiy tilshunosliklarda ham bemalol kuzatish mumkin. Bu davr ichida til birliklarining formal-struktur, semantik va funksional tahlillari bobida salmoqli ilmiy natijalarga erishildi.

O'zbek tilshunosligi tom ma'nodagi fan sifatida XX asrning 20-30-yillarida shakllana boshladi. O'z oldiga davr talablaridan kelib chiqib, muayyan maqsadlarni qo'ygan o'zbek tilshunosligi 50-60 yil mobaynida o'zbek adabiy tili meyorlarini ishlab chiqish va ommalashtirishdan iborat ulkan zarurat asosida ish ko'rdi.

Adabiy til – milliy yaxlitlikka erishishning, milliy yaxlitlik esa milliy taraqqiyotning bosh omili. Unga erishish zarurati natijasi o'laroq vujudga kelgan o'zbek an'anaviy (formal) tilshunosligi vakillari o'zbek tili qurilishini tavsiflash umumiy vazifasi ostida birlashishdi. XX asr o'zbek tilshunosligining shakllanishida Abdurauf Fitrat, E.D.Polivanov, G'ozi Olim Yunusov, Qayum Ramazon, Faxri Kamolov, Ulug' Tursunov, Ayyub G'ulomov va ular izdoshlarining xizmati katta. Bu davrda o'zbek tilining ichki qurilishi zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida o'rganildi va o'zbek tilshunosligi jahon zamonaviy tilshunosligining bir bo'lagi sifatida shakllandi. Tilshunoslikning bugungi mavjud barcha bo'limlari bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishi vujudga keldi. Ular asosida imlo va talaffuz qoidalari yaratilib, o'rta, o'rta maxsus va oliy maktab uchun bu tildan meyoriy darslik, qo'llanma va ilmiy grammatikalar yaratildi. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursining mutaxassislar tayyorlashda fundamental predmet sifatida o'qitilishi mazkur ijtimoiy zarurat asosida kechdi. Natijada ta'lim, matbuot, radio, televideniye, rasmiy ish yuritish, kitobchilik ishlarida o'zbek adabiy tilining ustuvorligiga erishildi. Adabiy til meyorlarini ishlab chiqish va ommalashtirishdan iborat ijtimoiy buyurtmani olgan o'zbek an'anaviy tilshunosligi

o‘zbek adabiy tilining imlo qoidalari, imlo lug‘ati, talaffuz me‘yorlari, o‘zbek adabiy tilining akademik grammatikalari, shuningdek, o‘zbek tilining 2 tomli izohli lug‘ati nashr etilishi bilan o‘tgan asrning 80-yillarida o‘z faoliyatiga yakun yasadi. Bu holat yetakchi o‘zbek tilshunoslari tomonidan e‘tirof etildi.

Ammo o‘tgan asr ibtidosidagi zarurat an‘ana tusiga kirib, uzoq muddat saqlanib qoldi va u, hatto, hozir ham ma‘lum darajada o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. Tilshunoslik bo‘yicha aksariyat tadqiqotlarning umrini o‘tab bo‘lgan talab va mezonlar asosida bajarilishi, tadqiqot xulosalarining bugungi zaruriy samaradan xoliligi, yangi qarashlar va nuqtai nazarlarning ayovsiz tanqid qilinishi va ko‘r-ko‘rona inkor etilishi, “an‘anaviy tilshunoslik”ni mumtoz tilshunoslik sifatida qarash va ulug‘lash, uning yutuqlarini mutlaqlashtirish, hatto, ayrimlar tomonidan uni ta‘limning barcha bosqichlarida tiklash va ommalashtirishga intilish, an‘anaviy ilmiy bilimlarni tadqiqotchilarning professional saviyasini sinash mezoniga aylantirish holatlari, mazkur ta‘limot darg‘alari qarashlariga hurmat-e‘tiborning sakral tus olishi, shu bilan birga, fanda obro‘li va mansabdor shaxslar fikrining mutlaqlashtirilishi kabilarning saqlanib qolishi umumiy ilmiy lingvistik tafakkurning an‘anaviylik xususiyati darajasini ko‘rsatadi.

XX asrning 70-yillariga kelib o‘zbek tilshunosligining empirik (amaliy, faktografik) bosqichi tugallangan, o‘z zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy zarurat – adabiy til meyorlarini ishlab chiqish va omma ongiga singdirishdan iborat ulkan vazifa ado etilgan edi. To‘plangan boy daliliy ashyoni dialektik metodologiya asosida o‘rganishga kuchli zamin tayyorlangan bo‘lib, tilshunoslikning o‘zi esa turg‘unlik, an‘anaparastlik holatini boshdan kechirmoqda edi. Shu boisdan butun sobiq sho‘ro davlati hududida olib borilayotgan oshkoralik va qayta qurish siyosati o‘zbek tilshunosligi fanini ham chetlab o‘tmadi. Fanning yangi avlod olimlari qayta qurish sharoitida o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari, mutaxassislar e‘tiborini kutayotgan tarixiy zarurat bo‘yicha respublika va ittifoq matbuotida chiqish qildilar.

Bu vazifalar tildan amaliy foydalanish, uning ijtimoiy funksiyasi samaradorligini oshirish, milliy-madaniy kodlarini aniqlash, tilni algoritmlash,

modellashtirish, axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan umumiy lisoniy imkoniyatlarini ochishdek tarixiy zarurat, ijtimoiy buyurtma talablari natijasi edi. Ularni ado etish "imkoniyatlar tilshunosligi" degan nomga sazovor bo'lgan, o'zbek an'anaviy tilshunosligining vorisi – o'zbek substansial tilshunosligi zimmasiga yuklatildi. Bu tilshunoslik o'zbek tilining lisoniy va nutqiy strukturalarini farqlash, lisoniy struktura va lisoniy birliklarni, ularning imkoniyatlarini aniqlash borasida izchil tadqiqotlar olib borib, tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik lisoniy strukturalarini va birliklarini dialektik tadqiq metodologiyasi asosida tekshirdi. Tekshirish natijalari dissertatsiya va monografiyalar sifatida shakllantirildi. Hatto o'zbek tilining lisoniy strukturasini o'rganish jarayonida ochilgan substansial qonuniyatlar (masalan, lisoniy darajalanish) bugungi kunda g'arb tilshunosligining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lgan korpus tahlil tadqiqotlarida keng qo'llanilayotganligini (Germaniya) iftixor ila qayd etish lozim.

Ko'rinadiki, o'zbek substansial tilshunosligi vakillari ham davr talablari asosidagi ijtimoiy zaruratni teran anglab, undan kelib chiqadigan vazifalarni ado etishdi.<sup>3</sup>

E'tirof etish lozimki, bugungi kunda bu yo'nalishda ham tafakkur an'anaviyligiga xos belgilar ko'zga tashlanadi. Tilshunoslikning boshqa yo'nalishlariga bepisand munosabatda bo'lish, fanning yangi paradigmalarni "sof tilshunoslik" emaslikda ayblash, haqiqiy til ilmi sifatida lisoniy struktura tadqiqinagina tan olish kabilar shular jumlasidandir. Ammo ushbu yo'nalishda tafakkur an'anaviyligidan xalos bo'lishni ta'minlaydigan holatlar quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchi, o'zbek substansial tilshunosligi istiqbol tilshunosligi bo'lib, u mustaqillik davrida shakllandi va rivojlandi. O'z maqsad va vazifalarini, tadqiq metodologiyasi va metodikasini mustaqil tanlash, o'rganish obyektiga avtoritar ko'rsatmalarsiz erkin yondashish imkoniyatiga ega bo'ldi.

---

<sup>3</sup>Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Fan va Texnologiya, 2009. - B.25.

Ikkinchidan, o‘zbek substansial tilshunosligi an’anaviy va konservativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodologiya bo‘lgan kommunistik dogmalardan xoli rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

Uchinchidan, bu yo‘nalish namoyandalari o‘rganish obyekti bilan bog‘liq navbatdagi tarixiy zaruratni anglash va unga doir vazifalarni belgilash bilangina o‘zbek substansial tilshunosligini rivojlantirish mumkinligini, aks holda u ham konservativlashib, mutlaqlashib, an’anaviylik chohiga tushib qolishini teran his etish imkoniyatiga egadirlar.

## **1.2. O‘zbek tili lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi tadqiqi tilshunoslikning yangi empirik bosqichi sifatida**

Davr o‘zbek tilshunosligidan aniqlangan lisoniy umumiyliklarning nutqiy voqelanishini tekshirishga, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish, qo‘llanish doirasini kengaytirish muammolari bilan shug‘ullanishga jiddiy kirishishni talab qilmoqda. Bu yangi asr tilshunosligi zimmasiga yuklatilayotgan ijtimoiy buyurtmadir. Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida alohida ta’kidlaganlaridek, “ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar chop etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz.”<sup>4</sup> Bu esa lisoniy imkoniyatlarning amaliy voqelanishi, undan samarali foydalanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi o‘zbek amaliy tilshunosligining sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, pragmalolingvistika, lingvokognitologiya, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi zamonaviy fan yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yish asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, XXI asr axborot

---

<sup>4</sup> Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 87.

texnologiyalari va globallashtirish asri ekan, o‘zbek tilining global til korpuslariga qo‘shiluvini ta‘minlash ham tarixiy zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda taraqqiyot o‘zbek tilshunosligi fanidan aniqlangan lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini tekshirishga, ona tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligini ta‘minlash muammosi bilan shug‘ullanishga jiddiy kirishishni taqozo etmoqda. Yangi asr fani zimmasiga yuklatilayotgan bu ijtimoiy buyurtma tilni yangi – substansial-pragmatik (“imkoniyatdan voqelikka”) tamoyillar asosida tadqiq qilish asosida amalga oshiriladi.

Tilshunoslikning yangi yo‘nalishini ifodalovchi *substansial-pragmatik terminining* tarkibiga kirgan pragmatika so‘zi yunoncha *pragma, pragmatos* so‘zidan olingan va “ish”, “harakat” ma‘nolarini bildiradi, tilshunoslikda til birliklarining qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganishni anglatadi. Substansial-pragmatik yo‘nalish muayyan til imkoniyatlarini egallab undan amalda foydalanuvchilarning ushbu birliklar sistemasiga ongli, amaliy munosabatini tekshiradi. Pragmatika haqidagi g‘oya dastlab amerikalik olim Charlz Pirs tomonidan fanga kiritilgan. Boshqa bir amerikalik olim Charlz Morris uning g‘oyalarini rivojlantirgan. O‘zbek tilshunosligidagina til birliklaridan foydalanish masalasi lisoniy imkoniyatlar bilan uzviy bog‘langan holda tadqiq qilinadi, shu boisdan yo‘nalish mazkur nom bilan yuritilmoqda.

Ko‘rinadiki, substansial-pragmatik yondashuv o‘zbek fanida shakllanayotgan tilshunoslikning yangi empirik yo‘nalishi sifatida lisoniy imkoniyatlarni so‘zlovchi, tinglovchi, ularning muloqot jarayonidagi o‘zaro munosabati, muloqot vaziyati singari nolisoniy hodisalar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Shaxsning lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanishi so‘zlovchi hamda tinglovchining shaxsiy sifatleri, nutq maqsadi, uning turlari (oshkora yoki yashirin), shakllari (xabar, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va‘da berish, salomlashish, so‘rashish, xayrlashuv, uzr, tabrik, shikoyat kabilar), nutq strategiyasi va taktikasi, nutq odobi, muloqot madaniyati, so‘zlovchi yoki tinglovchining dunyoqarashi, bilim darajasi, qiziqishlari kabi qator nolisoniy omillar bilan mushtarak holda yuzaga chiqadi.

Yangi asr o‘zbek tilshunosligining asosiy vazifalari Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida quyidagicha umumiy tarzda belgilab berilgan:

- 1) ona tilini avaylab-asrash;
- 2) tilimizni boyitish ustida tinimsiz ishlash;
- 3) ona tilidan amaliy foydalanish samaradorligiga erishish;
- 4) o‘zbek tilining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida qo‘llanishini kengaytirish.

Bu vazifalar markazida ona tilidan amaliy foydalanish samaradorligiga erishish muammosi turadi.

Demak, shakllanajak o‘zbek substansial-pragmatik tilshunosligi oldida turgan o‘zbek tilining XX asrda ochilgan lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligini tadqiq qilish vazifasi ijtimoiy ehtiyoj, davr talabidir, bu vazifaning bajarilishi esa o‘zbek milliy tilshunosligi fani hamda ona tili ta’limini amaliy jihatdan samarador bo‘lgan yangi sifat bosqichiga ko‘taradi.

Til ta’limida pragmatik layoqat o‘quvchilarning til imkoniyatlaridan nutq sharoiti, vaziyatiga mos ravishda foydalanishini bildiradi. Nutqiy faoliyatda nutq uslublari, nutq maqsadi, uning turlari (oshkora yoki yashirin), shakllari (xabar, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va’da berish, salomlashish, so‘rashish, xayrlashuv, uzr, tabrik, shikoyat kabilar), nutq strategiyasi, taktikasi kabilar bevosita real nutqiy vaziyat bilan bog‘liq ravishda reallashadi. Ona tilining pragmatik ta’limida til bo‘yicha bilimlar o‘quvchi kundalik hayotida duch keladigan aniq hayotiy vaziyatlar bilan bevosita bog‘langan holda beriladi. Sodda qilib aytganda, o‘quvchi ona tilining qudratli imkoniyatidan aniq nutqiy vaziyatlarda, nutq uslublari oqilona, samarali foydalana olish malakasiga ega bo‘lishiga erishish pragmatik ta’limning negizini tashkil etadi. O‘quvchilarning nutqiy vaziyatni to‘g‘ri, xolis baholay olishga doir tayyorgarlik darajasi (bilim, ko‘nikma, malakalari majmui) pragmatik layoqat hisoblanadi.

Bugungi kunda til ta’limiga pragmatik yondashuv davr talabiga aylanmoqda. U tilshunoslikda til birliklarining nutq sharoiti, vaziyatiga mos

ravishda qo‘llanish xususiyatlarini anglatadi. Pragmatik tilshunoslik til hodisalarini muloqot vaziyati, sharoiti singari nolisoniy hodisalar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Shu jihati bilan pragmatik tilshunoslik tilni insondan, jonli hayotdan xoli holda tadqiq qiladigan tilshunosliklardan, pragmatik ona tili ta‘limi esa tilni nutq vaziyati, sharoitidan ajratib o‘qitadigan an‘anaviy ta‘limdan farqlanadi.

Har bir kishi muayyan muloqot vaziyatida o‘z maqsadiga muvofiq ravishda ko‘plab variantdosh til hodisalaridan ayni shu vaziyat uchun mosini tanlab qo‘llash malakasiga ma‘lum darajada ega. Lekin ular qanday nutqiy vaziyatda, kimga nisbatan ishlatilishi, qanday samara berishi jihatidan keskin farqlanadi. Bunda so‘zlovchining ushbu sharoit, vaziyat uchun kamroq quvvat sarflab, ko‘proq samaraga erishishni ta‘minlaydigan til birligini tanlash layoqati ishga tushadi. Boshqacha aytganda, kishida tilning “Yordam bering!” xazinasidan nutq vaziyati, sharoitiga muvofiq foydalanish layoqatining rivojlanganlik darajasi muloqot natijasi va samarasiga jiddiy ta‘sir qiladi. Shu asosda aytish mumkinki, ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning til vositalarini aniq nutqiy vaziyat uchun samara nuqtai nazaridan tanlash hamda qo‘llashga tayyorgarlik darajasi uning pragmatik layoqati sifatida qaraladi.

Demak, ona tili ta‘limida pragmatik layoqatni rivojlantirish o‘quvchida nutq vaziyatini to‘g‘ri baholashni, unga mos so‘zlash shaxsiy sifatlarini qaror toptirishni ko‘zda tutadi.

## **I bob bo'yicha xulosalar**

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ommalashganligi, ilmiy tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarblashganligi tufayli tilshunoslik ham amaliy vazifalariga – nutq samaradorligi tadqiqiga e'tiborni kuchaytirdi. Natijada tilshunoslikning jamiyat va inson nutqi bevosita bog'liq holda o'rganuvchi ijtimoiy tilshunoslik – sotsiolingvistika, til vakillari nutqini milliy etnik xususiyatlar tadrijida yorituvchi etnolingvistika, til birliklari va muayyan shaxs nutqi munosabatlarini aniqlovchi pragmatika, nutqning maqsadi, uning nutqiy vaziyat va aloqa, anglash va bilish jarayonidagi o'rnini tavsiflovchi psixolingvistika kabi yangi tarmoqlari vujudga keldi. Bu yo'nalishlarning mohiyati shundaki, endilikda nutqqa insoniy faoliyat – fikr almashtirish va o'zgalarga ta'sir ko'rsatish, bunyod qilishning asosiy turlaridan biri sifatida yondashilib, uning ixchamligi, samaradorligi va ta'sirchanligi, mantiqiyliqi tadqiqi birinchi o'ringa qo'yilmoqda. Shu asosda jahon tilshunosligida nutqning faoliyat sifatidagi qiymati hamda uning to'g'ri va ko'chma ma'nolarini ajratish, ochiq ifodalanmagan, lekin ifodalanishi so'zlovchining maqsadi bo'lgan ma'lumot – axborotni aniqlash usullari ishlab chiqildi va u tezda ommalashib ulgurdi. Bu yangi fanlarning ayrimlari respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotganligi quvonarli, albatta.

Ma'lumki, nutqiy muloqot o'nlab – milliy, etnografik, ijtimoiy, falsafiy-madaniy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat harakatli tizimdir. Inson nutqida bu omillar u yoki bu tarzda mujassamlashadi, bir butun va yaxlit hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham nutqda subyektivlik va obyektivlikni bir-biridan ajratgan holda tadqiq qilish mumkin emas. Demak, nutqiy faoliyat unga yondosh va insonga xos ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy holatlar bilan bog'liqlikda tadqiq etilgandagina nutqiy muloqotning mohiyati ochiladi va individual hodisa sifatidagi nutqqa obyektiv baho beriladi. Bu esa, lisonning nutqiy voqelanishini unga hamrohlik qiluvchi nutqiy paradigmalar (fiziologik, ruhiy, professional, axloqiy, estetik, madaniy, nutq vaziyati – nutq sharoiti, nutq uslubi)



qurshovida tekshirish natijasida lisonni modifikatsiya qiluvchi vositalarning ta'siri va rolini baholash, nutqning ijtimoiy qiymatiga va ta'sirchanlik – bunyodkorlik qudratiga ilmiy tavsif berilishning nechog'lik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

## II BOB

### YORDAMCHI SO‘ZLAR LISONIY SATHDA

#### 2.1. Umumiy grammatik ma’no va uning turlari talqini

Til hodisalarini nazariy o‘rganish bosqichi morfologik hodisalarning cheksiz nutqiy ma’nolari zamiridagi lisoniy jihatini – umumiy grammatik ma’nosini tiklashni kun tartibiga qo‘ydi. Chunki “tilshunosligimizda grammatik ma’no, uning tabiati, mohiyati, umumiy va xususiy ma’no muammosi yaqin vaqtlargacha maxsus qo‘yilmagan edi”<sup>5</sup>. Morfologik hodisa umumiy grammatik ma’nosi muammosiga jahon tilshunosligida o‘tgan asrning o‘ttizinchi, turkiyshunoslikda oltmishinchi yillaridan boshlab S.N.Ivanov, V.G.Guzev, H.G‘.Ne‘matov, A.Nurmonov, G‘.N.Zikrillayev tadqiqotlarida alohida e’tibor qaratildi<sup>6</sup>. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida esa Sh.Shahobiddinova, Z.Qodirov, B.Bahriddinova, O.Shukurov, N.Musulmonova tadqiqotlarida bu masala atroflicha tekshirildi va o‘zbek tili barcha morfologik sistemalari lison–nutq bo‘linishida teran tadqiq etildi<sup>7</sup> hamda “umumiy grammatik ma’no til birligining minglab turli xil matnlarda yuzaga chiqadigan va bevosita kuzatishda berilgan xususiy (nutqiy) grammatik ma’nolarining umumiy yig‘indisi bo‘lmay, nutqiy ma’nolar negizida yotgan, ularga nisbatan dialektik umumiylik vazifasini o‘taydigan ma’no”<sup>8</sup> sifatida qayd etildi.

<sup>5</sup> Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини ҳақида: Филол. фан. номз....дис. автореф. –Самарқанд, 1993. – Б. 3.

<sup>6</sup> Иванов С.Н. Категория залога в причастии узбекского языка. В книге «Исследования по истории культуры народов Востока» // Сборник в честь академика И.А.Орбели. -М.:Л.,1960.-С.123-134. Гузев В.Г., Насилов Д.М. Слово-изменяемые категории в тюркских языках и понятие грамматическая категория // Советская тюркология. -1981. -№3. С.23-35. Неъматов Ҳ.Ғ. Феъл, унинг форма ва категориялари // Ўзбек тили ва адабиёти. -1972. -№1, -Б. -39-47; №2, -Б. 42-50. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., НабиеваД. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Тошкент.: Янги аср авлоди. 2001. -164 б. Зикриллаев Ғ. Н. Феълнинг шахс, сон, ҳурмат категориялари системаси. –Тошкент: Фан, 1990. -111 б.

<sup>7</sup> Баҳриддинова Б. М. Феъл луғавий шакллари тизими. Феълнинг тур категорияси: Филол. фан. номзоди...дис. –Самарқанд, 2002. -150 б. Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари.: Филол. фан. номз... дисс. –Бухоро, 1995. -144 б. Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини ҳақида: Филол. фан. номз.... дис. автореф. –Самарқанд, 1993. -152-б. Шаҳобиддинова Ш. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол. фан. док.. дис. автореф.–Тошкент, 2001.-50б. Шуқуров О. Ҳаракат тарзи шакллари парадигмаси: Филол. фан. номз. дис. –Самарқанд, 2005. -126 б.

<sup>8</sup> Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини ҳақида: Филол. фан. номз.... дис. автореф. –Самарқанд, 1993. – Б. 21.

Ko‘rinadiki, morfologik hodisalardan har birining umumiy grammatik ma‘nosi o‘ziga xos, serqirra va bo‘linuvchan, bu bo‘linuvchanlik va serqirralik umumiy ma‘noning murakkab tabiatliligini ko‘rsatadi. Morfologik hodisalar umumiy ma‘nosining serqirraligi va kamida ikki qirraligi ular ichki va tashqi munosabatlarining ham murakkabligiga bog‘liq bo‘ladi.

Morfologik hodisa umumiy ma‘nosi serqirraligi ular tabiatining qarama–qarshilikli, ziddiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Narsaning mohiyatini anglash esa ana shu “ziddiyatli, o‘zaro inkor etuvchi, qarama–qarshi tendensiyalarni ochish (tan olish)ni taqozo etadi”<sup>9</sup>.

Lisoniy hodisa serqirra ekan, u kamida ikki paradigmaga mansub bo‘ladi. Til hodisalariga substansial yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri ham, har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigmaga mansubligidir<sup>10</sup>. “Lisoniy birlikning bir necha, kamida ikki paradigmada ishtirok eta olishi dialektika va tasavvufda narsaning (istagan tadqiq manbaining) serqirraligi bilan bog‘liqdir. Ma‘lumki, dialektikada narsaning, ya’ni lisoniy birlikning serqirraligi deganda, shu narsaning o‘ziga o‘xshash hamda noo‘xshash, aloqador va aloqasiz cheksiz narsalar bilan rang-barang munosabatlarga kirisha olishi va shular asosida ziddiyatli xususiyatlarga, tomonlarga ega ekanligi tushuniladi”<sup>11</sup>.

Lisoniy birliklarning serqirraligi ularning bir paradigmaga kirishi boshqa paradigmatic belgilarning kuchsizlanishini keltirib chiqarishi bilan bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, “lisoniy birlik bir necha paradigmaga kirar ekan, har bir paradigmaga faqat bir qirradi bilan kiradi, boshqa qirradi esa shaklni boshqa paradigmaga olib kiradi”<sup>12</sup>.

Umumiy grammatik ma‘no, demak, ham u, ham bu paradigmaga kira oladi, uni bir paradigma bilan cheklab bo‘lmaydi. Shu bilan birgalikda, bir vaqtning o‘zida bir paradigmaga mansub bo‘ladi. Morfologik vosita umumiy ma‘nosini ”bir

<sup>9</sup> Иванов С.Н. Родословное древо – тюрок Абдул – Гази – Хана. Грамматический очерк. Имя и глагол. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 24.

<sup>10</sup> Курбонова М.М. Ҳозирги замон ўзбек тили. (Содда гап синтаксиси учун материаллар). -Тошкент, 2002. – Б. 8.

<sup>11</sup> Курбонова М.М. Ҳозирги замон ўзбек тили. (Содда гап синтаксиси учун материаллар). -Тошкент, 2002. – Б. 10.

<sup>12</sup> Курбонова М.М. Ҳозирги замон ўзбек тили. (Содда гап синтаксиси учун материаллар). -Тошкент, 2002. – Б. 10.

shaklning ikkinchi shaklga munosabati, ya'ni bir qator ziddiyat asosida keltirib chiqarish uni behad jo'nlashtirish bo'ladi, holbuki, paradigmatic shakl(grammatik sistema)ning munosabatlari rang–barangdir”<sup>13</sup>. Chunki shaklning bevosita munosabatlari asosida uning mohiyati emas, balki qandaydir alohida qirrasini ochiladi. Morfologik vositalar o'zlari mansub tizimlar umumiy ma'nosini juz'iyashtirish va qay darajada juz'iyashtirishi bilan unga munosabatini bildiradi. Ma'lumki, grammatik sistema yordamchi so'zlarning oddiy arifmetik yig'indisiga teng emas va ular orasida, odatda, tur-jins munosabatlari mavjud bo'ladi. Boshqacha aytganda, yordamchi so'z yordamchi so'zlar sistemasi umumiy ma'nosini lisoniy sathda o'zicha juz'iyashtiradi hamda nutqiy sharoitga mos ravishda turli ko'rinishlarda muayyanlashtiradi. Agar sistema umumiy ma'nosi bilan uning alohida shakli nisbiy umumiy grammatik ma'nosi orasida nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, har bir holat alohida tavsiflanishi lozim<sup>14</sup>.

Yordamchi so'zlar o'zlari mansub sistema umumiy grammatik ma'nosini turlicha «parchalaydi» va bu «parcha»ga o'ziga xos hissasini qo'shadi. Masalan, ko'makchi «ismni fe'lga bog'lash» umumiy grammatik ma'nosiga ega bo'lib, tadqiqotchilar uning har bir turi bu umumiy grammatik ma'noni o'zicha xususiyashtirishini ta'kidlashadi. Ko'makchilarning ko'rinishlari esa umumiy grammatik ma'nodan «uzoqlashib», ulardagi o'ziga xoslik yanada kuchayadi. Masalan:

- “ – *ga qadar* – boshqa hodisaning boshlanish chegarasini ko'rsatish;
- *dan beri* – boshqa bir hodisaning tugallanishi chegarasini ko'rsatish;
- *gan sayin* – boshqa bir harakatning sodir bo'lish fonini ifodalash;

Bu ko'makchilarning barchasida ko'makchiga xos umumiy belgi – «otni fe'lga bog'lash» saqlangan, biroq har biri o'zicha boshqa ma'nolarni ham ifodalaydi.

Yordamchi so'zlarda bu shakl mansub sistemaga xos va boshqa sistemalarga xos ma'nolar ham mavjud bo'ladi.

<sup>13</sup> Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв.-Тошкент:Фан,1989.- С. 4.

<sup>14</sup> Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари.: Филол. фан. номз... дисс. –Бухоро, 1995. – Б. 64.

Xo‘sh, bu mavjudlik shunchaki grammatik illyuziyami yoki uning asosida qandaydir lisoniy qonuniyat yotadimi? Lisoniy birlik serqirra ekan, u asosiy belgilovchi xossasi bilan birgalikda unga yondosh ikkinchi darajali xossalarga ham ega bo‘ladiki, bu ikkala jihat dialektik butunlikni tashkil etadi.

Yordamchi so‘zlarda kategorial ma’no bilan birgalikda qator yo‘ldosh ma’nolar ham mavjud bo‘ladiki, bu ular mohiyatining kamida ikki qator ziddiyatlarda ochilishini ko‘rsatadi. Masalan, *uchun* va *deb* ko‘makchisi umumiy grammatik ma’nosi atalmishining semantik va sintaktik tavsiflarini berishdan iborat. Bu umumiy kategorial ma’no uchun ko‘makchisida “atash va sabab”ning aniqligi va hokim fe’l va otga tobelashni, *deb* ko‘makchisida “atash va maqsadning qorishuvi” va hokim fe’l tobelash” kabi ixtisoslashgan ko‘rinishlarga ega. Bu kichik tizim “atash”ni ifodalashga ixtisoslashgan morfologik hodisa. Shuningdek, umumiy grammatik ma’nodagi “noaniq”, “aniq”, “tobelash”, “fe’lga”, “otga” kabi unsurlar bevosita uning markazidagi (mohiyati hisoblanadigan) “atash” unsuriga bevosita daxldor emas. Biroq, “bevosita daxldor emaslik” uning mohiyatidan ayrichalik mustaqillik xossasi mavjudligini ko‘rsatmaydi. Chunki, deylik, [*uchun*] ko‘makchisi atashni ifodalalar ekan, u bir paytning o‘zida o‘z-o‘zidan yuqorida zikr etilgan “tobelash”, “ot va fe’lga” belgilarini ham ifodalab yuboradi. Demak, shaklda atash ma’nosi belgisi har doim sintaktik belgi bilan baqamti yashaydi, dialektik bog‘lanishda turadi. Chunki, ma’nolardan birining kuchayishi boshqasining susayishiga, boshqasining kuchayishi birinchisining susayishiga olib keladi. Masalan, “*Do‘konda suvlar bor*” gapida *-lar* shakli miqdor ham, sifatiy belgi (bo‘linuvchanlik, tur xil) ham ifodalamoqda. Biroq bunda sifatiy belgi (har xil suv bor) ustuvorlik kasb etib, miqdor belgisi kuchsizlanganligi sezilib turadi. Ma’lum bo‘ladiki, yordamchi so‘zlar umumiy grammatik ma’no tarkibiy qismlaridan biri sistema umumiy grammatik ma’nosining mohiyatini juz’iylashtirish bo‘lsa, boshqalari unga yondosh, mohiyat tarkibiga mansub bo‘lmagan, biroq u bilan dialektik yaxlitlik kasb etgan ma’nodir. Shuning uchun yordamchi so‘zlar umumiy grammatik ma’nosi tahlilida sof kategorial (yordamchi

soʻzlar mansub sistema mohiyatiga mansub) va unga yondosh hodisalar farqlanishi lozim.

Ayrim tadqiqotlarda shaklning kategorial mohiyatiga yondosh hodisalarni nokategorial maʼno sifatida baholash hollari uchraydi<sup>15</sup>. “Bunda hodisaga bir yoqlama munosabat koʻzga tashlanadi. Chunki nokategorial maʼno sifatida qaralgan hodisa, aynan shu hodisa uchun nokategorial boʻlsa-da, uni mutlaq nokategorial deb baholab boʻlmaydi. Masalan, zamon shakllari umumiy grammatik maʼnosi tarkibida umumiy grammatik maʼnoning kategorial “magʻzi” bilan birgalikda, unga turli xil mayl maʼnolari yoʻldoshlik qiladi. Bu maʼno zamon maʼnosini ifodalovchi shakl uchun nokategorial boʻlsa-da, mayl ifodalovchisi uchun kategorial, yaʼni mayl shakli umumiy grammatik maʼnosining kategorial “magʻzi”ni tashkil etadi.”<sup>16</sup> Shu boisdan, umumiy grammatik maʼno tarkibidagi “nokategorial” maʼnoni “yondosh maʼno” atamasi bilan berish haqiqatni maʼlum darajada yorqinroq ifodalaydi. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, “kategorial maʼno” va “yondosh maʼno” atamalari ham shartli ravishda qoʻllanadi. Chunki bir tomondan yondosh boʻlgan maʼno boshqa tomondan kategorial, bir tomondan kategorial hisoblanuvchi mohiyat boshqa umumiy grammatik maʼno tarkibida yondoshlik kasb etadi. Shuning uchun umumiy grammatik maʼno tarkibiy qismlaridan u yoki bu unurni kategorial yoki yondosh deb atash mutlaqo shartli boʻlib, bu yordamchi soʻz umumiy grammatik maʼnosining ikkilangan tabiatga egaligiga ishora qiladi.

Oʻzlari mansub sistemalarda kategorial va yondosh maʼnolar sifatiy va miqdoriy oʻziga xosliklarga ham ega. Maʼlumki, yordamchi soʻzlar tasnifida ham formal–funktional tahlil usulining “lisoniy birliklarning serqirraligi” omiliga tayaniladi.

---

<sup>15</sup> Шаҳобиддинова Ш. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол. фан. док. дис. автореф.–Т., 2001.–50б. Баҳриддинова Б.М. Феъл луғавий шакллари тизими. Феълнинг тур категорияси: Филол. фан. номз.... дис. –Самарқанд, 2002. –150 б.

<sup>16</sup> Мусулмонова Н. Грамматик шаклларда категориал ёндош ва ҳамроҳ маъно. – Тошкент: Академ нашр, 2012.

Yordamchi soʻzlardagi “nokategorial” maʼno sifatida boshqa oʻzlari mansub sistemalarga xos maʼnolargina ajratiladi va yondosh maʼno bunday mansublikka ega boʻlmasa, u “nokategorial maʼno” sifatida qaralmaydi.

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, yordamchi soʻzlar tizimi hamisha serqirra va soʻzning umumiy grammatik maʼnosi ham murakkab tuzilishga ega. Faqat oʻziga xos maʼnolardangina tashkil topgan sistemaning umumiy grammatik maʼnosi mavjud emas. Sistemada yondosh maʼno borligining oʻziyoq uni sof, sodda sistema deyishga yoʻl qoʻymaydi. Demak, butun mohiyat eʼtibori bilan faqat bitta sistemaga mansub yordamchi soʻz yoʻq ekan, yordamchi soʻzlar sistemalarining sodda-murakkabligini bu yoʻl bilan belgilash lisoniy holatni obyektiv baholashga toʻsiq boʻladi – unda sodda sistemaning oʻzi boʻlmaydi.

Yordamchi soʻz sistemasini murakkab sistema sifatida qarash mumkin. Chunki u, boshqa sistemalardan farqli oʻlaroq, uning tashkil etuvchilari mustaqil sistemalaridir: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama. Bu sistemalar oʻzida nisbiy qarama-qarshilikni mujassamlashtiradi. Yaʼni, bu sistemalarning har biri yordamchi soʻz sistemasiga nisbatan ichki sistema, yordamchi soʻz sistemasidan tashqarida alohida sistemadir. Boshqa sistemada esa bunday holat kuzatilmaydi. Bu sistema murakkabligining yana bir jihati shundaki, sodda sistemalarda yordamchi soʻz sistemi va yordamchi soʻzlar sistemalari orasida umumiylik–xususiylik dialektikasi hukmron boʻlsa, yordamchi soʻz sistemi va uni tashkil etuvchilari orasida butun–boʻlak munosabati mavjud. Butun–boʻlak munosabati esa mantiqan murakkablikning asosidir.

Xoʻsh, yordamchi soʻz sistemi murakkab sistema ekan, bu sistema umumiy grammatik maʼnosi tarkibi qanday va unda kategorial hamda yondosh hodisalar qanday belgilanadi? Bu savolga javob berish uchun fikrni ayonroq boʻlgan leksik asoslarda dalillashga harakat qilamiz.

Maʼlumki, polisemantik leksemalar sememalari ikki xil munosabatda boʻladi:

- a) asos – aniq hosilaviylik;
- b) asos – noaniq hosilaviylik.

[*qanot*] leksemasining “qushlarning ikki yonidagi uchish a’zosi” sememasi bosh, asos semema bo‘lib, “samolyotning ikki yonidagi uchish moslamasi” sememasi asos sememadan chiqqan hosila sememadir.<sup>17</sup>

[*olma*] leksemasidagi “daraxt” va “meva” tushunchalarini ataydigan ikki sememadan qaysi biri asos va qaysisi hosila ekanligini aniqlashning imkoni yo‘q. Shu boisdan bunday sememalar yondosh sememalar sifatida qaraladi.

O‘zgalovchi sistemasi umumiy grammatik ma’nosi tarkibidagi “fe’lni boshqa so‘zga bog‘lash va unga ravishlik, sifatlik va otlik xususiyatlarini berish”, yordamchi so‘z sistemasi umumiy grammatik ma’nosi tarkibidagi ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama sistemalari teng qiymatli mohiyatga ega bo‘lib, sistemada ularning birortasiga ustuvorlik berish mumkin emas. Chunki yordamchi so‘z sistemasi morfologik sistemalar sirasida ham tasniflovchi, ham sintaktik sistemalar oralig‘ida “oraliq uchinchi” maqomiga egaligi unda ikki xil mohiyatning mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Bunda umumiy grammatik ma’noning tarkibiy qismi “otni keyingi so‘zga bog‘lash” va “tegishli grammatik ma’noni ifodalash” dan biri ikkinchisi uchun, ikkinchisi birinchisi uchun yondosh, shu bilan birgalikda, o‘z-o‘ziga kategorial ma’no hisoblanadi.

Yordamchi so‘z murakkab sistema bo‘lganligining o‘zi ham ulardan birortasiga asosiylik maqomi berishga yo‘l qo‘ymaydi va ularning har biri so‘z birikmasini hosil qilishda umumiy grammatik ma’nosining turli qirralarini o‘zida saqlaydi. Shu boisdan, murakkab sistemadagi har bir sistema yondosh sistema, har bir umumiy grammatik ma’no parchasi yondosh ma’no sifatida baholanishi lozim. Bu ma’nolar bir vaqtning o‘zida kategorial ma’nolar hamdir. Masalan, Salim uchun gapidagi “adresat”, “tobelash” ma’nolarining har biri ko‘makchi sistemasi tarkibida yondosh ma’nolar bo‘lib, o‘zlari bevosita tegishli bo‘lgan sistemalar uchun esa nokategorial ma’nodir.

---

<sup>17</sup>Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: Fan va Texnologiya, 2009. - B.310.



Demak, o‘zbek tili yordamchi so‘z sistemasi umumiy grammatik ma’nolarini tarkibiy qismlarining o‘zaro munosabati va tabiatiga ko‘ra ikkiga bo‘lish mumkin:

a) umumiy grammatik ma’nolari tarkibiy qismlari o‘zaro kategoriallik va yondoshlik tabiatiga ega bo‘lgan sistemalar (ko‘makchi, bog‘lovchi);

b) umumiy grammatik ma’nolari tarkibiy qismlari o‘zaro yondoshlik tabiatiga ega bo‘lgan sistemalar (yuklama).

Yordamchi so‘zlar umumiy grammatik ma’nosidagi yondosh ma’nolarni tasniflashda uning miqdori, qaysi sathga mansubligidan kelib chiqishi lozim bo‘ladi.

## **2.2. Yordamchi so‘zlar lisoniy tizim yaxlitligida**

O‘zbek tilshunosligida til sathlari alohida-alohida sistemalar sifatida, asosan, o‘rganildi. Bu esa uni nutqda namoyon bo‘luvchi yaxlit ijtimoiy-psixik substansiya sifatida o‘rganish uchun keng imkoniyat va qulay sharoit vujudga kelganligidan dalolat beradi. Chunki har bir nutqiy parchada tilning yondosh barcha sathlari o‘z izini qoldiradi, uning voqelanishiga hissa qo‘shadi.

Til yaxlit sistema ekan, bunda uning butunlik sifatida o‘z tarkibiy qismlarining oddiy arifmetik yig‘indisiga teng emasligini esda tutish lozim. Zero, sistema uchun asosiy shart munosabatlar bo‘lib, bu esa, aytilganidek, tarkibiy qismlarning butunlik tashkil etishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, geometrik figura sifatida kvadrat to‘rtta to‘g‘ri chiziqning yig‘indisidagina iborat emas, balki tomonlarning perpendikulyar va parallel munosabatlari hamda bu munosabat ta’sirida tug‘iladigan to‘g‘ri burchaklar konyunksiyasi asosida tiklanadi. Nutqda voqelangani har qanday, deylik, fonetik, lug‘aviy, morfologik, sintaktik hodisalardan har birida boshqa sath hodisalari muntazam bo‘lmagan hamkorlikda harakat qiladi. Keltirilgan har ikkala dalil esa, zohiran bog‘liqdek tuyulmasa-da, botinan yagona qonuniyat asosida hukm suruvchi bir vujudning ikki parchasi sifatida bir-birini mustahkamlovchi asoslardir.

Borliq “yaxlit vujudlilik” qonuniyati sifatida hukm surar ekan, uning yashashi, namoyon bo‘lishi substansiya va tajalli musanniyati asosida tushuntiriladi. Substansiya va tajalli qarama-qarshiligi esa lison va nutq dixotomiyasini oydinlashtiruvchi asosiy, tayanch metodologik xususiyat kasb etganligi bilan xarakterlanadi.

Sharq ma’naviyati va madaniyatida, xususan, ilmida, metodologiyaga, aniqrog‘i, ilmiy tadqiq metodologiyasiga alohida e’tibor bilan qarashgan. Metodologik tayanchsiz yoki uni uqmagan tadqiqotchi ko‘rga (Navoiyda) yoxud qorong‘ulikdagi kishiga (Rumiya) qiyoslanadi.

Tasavvuf dialektikasida bilish borliq va Haq munosabatini anglash asosida tushuntirilgan ekan, bunda dastlab ikki – fahmiy va idrokiy bosqichlar farqlanadi. Afsuski, bugungi kunda tasavvufdagi fahmiy va idrokiy bilimlar va ularning ixtilofi haqidagi ma’lumotlar fanimizga bevosita Yevropa falsafasi asosida kirib keldi. Ma’lum bo‘ladiki, zamonaviy falsafadagi dialektik-gnoseologik tadqiq omillari zotan sharq tafakkuri mahsuli – tasavvuf dialektikasidagi bilish konsepsiyasidan farq qilmaydi. Demak, milliy istiqlol ilmiy tadqiq jarayonida ilmiy-metodologik qadriyatlar – sharq ma’rifiy adabiyotining dialektik-gnoseologik mag‘zidan ham oziqlanish uchun keng imkoniyatlar ochib bergan ekan, undan oqilona foydalanish zarur. Buning esa milliy mafkura takomilidagi roli beqiyos.

Til yaxlitligida leksik sath birligi xususida so‘z ketganda, o‘zbek tilining o‘ziga xos sifatlaridan biri aks etgan leksema tushunchasining lisoniy sistemada tutgan o‘rni masalasiga alohida to‘xtalish lozim bo‘ladi.

Bugungi kungacha o‘zbek tili leksemalari flektiv tillar leksemalari qonuniyatlari asosida o‘rganib kelindi. Biroq flektiv tillar hodisalaridan farqli o‘laroq, o‘zbek tili leksemalari mustaqil qo‘llanish, ma’no anglatish xossasiga egaligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan o‘zbek tili leksemalari talqiniga uni mustaqil qo‘llanish xossasiga ega bo‘lmagan morfemalardan farqlab yondashish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek tilshunosligida leksik hodisalar sistemaviy asoslarda ma'lum darajada o'rganilgan. Shu boisdan leksik hodisalarda lison va nutqni izchil farqlash masalasida munozarali nuqtalar talaygina. Xususan, ko'chim asosidagi hosila ma'nolarda bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun hosila ma'nolarni lisoniy, lisoniylashayotgan va lisoniylashmagan kabi turlarga ajratish mazkur hodisalar talqiniga ma'lum darajada oydinlik kiritadi.

Leksemalarda sememalar ajratilgani, shuningdek, morfologiya va sintaksisda umumiy grammatik ma'nolar tiklangani holda, leksikada bu masala kun tartibiga qo'yilmagan. Bu, bir tomondan, leksik birliklarning boshqa sathlar birliklariga nisbatan miqdoran ko'pligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, umumlashtirish yuqori darajasining morfologiyaga «tegib qolishi»dir. Morfologiyadagi so'zlarning kategorial guruhlari esa aslida umumlashgan lug'aviy ma'nolardir. Demak, leksemalarda umumiy lug'aviy ma'no muammosining qo'yilishi nafaqat leksik, bir vaqtning o'zida morfologik ahamiyatga ham egadir.

Leksema umumiy lug'aviy ma'nosi uning mohiyati bo'lib, bevosita leksemaning nutqiy xususiyliklardan ajratilgan sifatlari sintezi asosida tiklanadi. Umumiylik va xususiylik munosabati esa murakkab bo'lib, ko'p sememali va bir sememali leksemalarda u turlicha tajallilanadi. Ko'p sememali leksemalarda umumiylik sememalar sintezidan tiklanadi. Bunda semema umumiylik va xususiylik orasidagi oraliq holat sifatida baholanishi lozim. Bir sememali leksemalarda esa umumiylik sememaga teng bo'lib, oraliq ma'no lisonning leksik sathdan quyidagi xususiy lug'aviy ma'nogacha bo'lgan qavatida o'rinlashadi.

Leksema nutqda voqelanar ekan, bunda umumiylikning xususiylashuvi bir necha oraliq «zina»lar asosida kechadi. Oraliq lug'aviy ma'no deb ataluvchi bu parchalarning farqlanishi va voqelikka aylanishida morfologik va sintaktik sathlar hamkorlik qiladi va bunda ularning «hissa»lari nisbati turlichadir. Masalan, sintaktik qolip leksemani nutqqa olib kiradi, morfologik vosita uni shakllantiradi. Biroq uning oraliq lug'aviy ma'nolarini farqlashda goh sintaksis, goh morfologiya ustunlik qiladi, Agar sintaksis leksemani nutqqa olib kirish va uning oraliq lug'aviy ma'nolarini farqlash imkoniyatiga ega bo'lsa, morfologiya uni

shakllantirish bilangina cheklanadi. Sintaksis qolipning vazifasi birlikni nutqqa olib kirish bilangina cheklansa, unda morfologiyaning faolligi ortadi. U endi nafaqat leksemani shakllantirish, balki oraliq bo'g'inlarni farqlash bilan ham mashg'ul bo'ladi.

Morfologik shakllar umumiy grammatik ma'no va oraliq grammatik ma'no masalasi tadqiqotlarda birmuncha kengroq o'rganilgan. Biroq ularning oraliq grammatik ma'nolarini farqlashda sathlararo munosabatlar masalasini o'rganish ham muhimdir. Morfologik shaklni sintaktik qolip nutqqa olib kiradi va lug'aviy hodisalar deganda ayrim leksemalargina emas, balki, leksemalarning guruhlari, birliklarning kategorial guruhlari ma'nolari ham tushuniladi.

Sintaktik hodisalarning vujudga kelishi, asosan, leksik va morfologik asosdadir. Sintaksisning asosiy birligi bo'lgan gap mohiyatining «mayl-zamon, shaxs-son, tasdiq-inkor ko'rsatkichlari bilan shakllangan mustaqil so'zlar» tarzida ta'riflanishining o'ziyoq bu sathlar orasidagi aloqadorlik darajasini yaqqol namoyon qiladi. Biroq bu sintaksisda u morfologiya va leksikadan xoli qilinsa, hech narsa qolmaydi degan «hayratomiz» to'xtamga olib kelmasligi kerak. Zero, «morfologik shakllangan mustaqil so'z» uchun bulardan tashqari, kesimlik pozitsiyasi ham talab qilinadi. Aks holda «qo'ydi-chiqdi eskidan qolgan odat» kabi birikuvlarda morfologik shakllangan so'z (qo'ydi-chiqdi) har doim ham kesim bo'laverar edi.

Sintaksisda semantik-funksional shakllangan gaplarning vujudga kelishi sof leksik asoslarda bo'lib, sintaktik hodisalar farqlanishida leksika ustuvorlik kasb etadi va buning hisobiga morfologiyaning passivlashishi kuzatiladi.

Gap va so'z kengaytiruvchilarining o'zaro farqlanishi, asosan, morfologik asoslarda bo'lib, ba'zi o'rinlarda so'z semantikasiga tayanish zarurati tug'iladi. Uzoq vaqtlardan beri munozara bo'lib kelayotgan to'ldiruvchi va holni farqlash masalasida grammatika hech qanday rol o'ynamaydi, bunda farqlovchi mezon sifatida leksik omilga asoslanish zarur va yetarlidir.

Sintaksisda oraliq shakl muammosi qo'yilgan. Tadqiqotchilar oraliq bo'g'in deganda, lisoniy sintaktik qolipning sintaktik sathdan quyidagi, nutqiy

sathgacha bo‘lgan bo‘linishlarini nazarda tutadi. Biroq oraliqlanish uzluksiz bo‘lib, u [W + W] umumiy sintaktik qolipidan muayyan gaplargacha cheksiz davom etadi.

Sintaktik qoliplarda ham sathlarning hamkorligi muhim rol o‘ynaydi. Leksika, asosan, sintaktik qoliplarni to‘ldirish va ba‘zan oraliq qoliplarni farqlash bilan mashg‘ul bo‘lsa, morfologik vositalar, asosan, qoliplarni shakllantirish va farqlash mas‘uliyatini zimmasiga oladi.

Demak, lisoniy sistemaning voqelanishida sathlarning uzviy aloqasi juda zich bo‘lib, bunda ularning hamkorligi turli daraja kasb etadi. Leksikaning morfologiya va sintaksis bilan aloqalari nisbatan kuchsiz bo‘lsa, morfologiyaning leksika va sintaksis bilan aloqasi o‘rtacha, sintaksis uchun esa leksika va morfologiya hamkorligi o‘ta muhimdir.

Ko‘makchilar lisoniy mohiyatining nutqiy voqelanishida sathlar hamkorligi alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, sof va vazifadosh ko‘makchilarning qo‘llanishlarida sathlarning hamkorligi yaqqol farqli ko‘rinishlar asosida namoyon bo‘ladi.

Til hamisha iste‘molda bo‘lgan jamiyat a‘zolari tomonidan misoli ulkan ummon bo‘lib, iste‘molchilar undan til qonuniyatlari asosida foydalanadi, unga shung‘iydi, qidirgani va topganicha dur-u zar topadi.

Tilshunoslar tilni o‘rganish borasida keyingi paytlarda alohida-alohida o‘rganilgan til birliklarini umumlashtirish, ularning ichki va tashqi imkoniyatlarini hisobga olgan holda tekshirish, ma‘lum paradigmalarga birlashtirish, o‘xshash va farqli xususiyatlarini qiyoslab o‘rganish, zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida xulosalash bosqichiga o‘tishmoqda.

Ma‘lumki, o‘zbek tili lisoniy tizimi yaxlitligida so‘zlarni bog‘lovchi vositalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, grammatik ma‘no ifodalash, so‘zlarni o‘zaro teng yoki tobe holda bog‘lash, nutqqa kiritish, gap bo‘laklari mavqeini ta‘minlash, tobe-hokimlik munosabatini saqlab turish, til uslublari uchun imkoniyat yaratish, nutqiy tejamkorlikni ta‘minlash, tilning ontolik xususiyatlarini ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘zlarni bog‘lovchilar sintaktik vositalar hisoblanib, ular so‘z birikmasi va gap tuzish jarayonida tayanch vazifa bajaradi. Kelishik shakllari, egalik shakllari, ko‘makchilar, bog‘lovchilar, yuklamalar

(nokategorial shakllar) va boshqalar soʻzlarni bogʻlovchi vositalar hisoblanib, nutqda oʻrni bilan vazifadosh til birliklari sifatida namoyon boʻladi.

Bunday soʻz-shakllar turli lisoniy sathlarga tegishli boʻlib, soʻzlarni bogʻlash vazifasi yuzasidan oʻz lisoniy sathida ichida ichki, oʻz lisoniy sathidan tashqarida (soʻzlarni bogʻlovchi vositalar bilan birgalikda) tashqi paradigmalarda gradual munosabatda ishtirok etadi. Bu esa tilning yaxlit tizim ekani, undagi birliklar esa doimo gradual munosabatda yashashini koʻrsatadi.

Til eng muhim aloqa vositasi hisoblanadi, aloqa esa keng maʼnoga ega. Jamiyat aʼzolari oʻzlari uchun doimo tilga ehtiyoj sezishadi. Tilsiz jamiyat aʼzolari hayotini tasavvur ham qilib boʻlmaydi. Biroq yozuv, imo-ishora kabi bir necha aloqa vositalari boʻlsa-da, ular tiling vazifasini toʻliq bajara olmaydi. Shunday ekan, til jamiyatda aloqa vositasini bajarishi jihatidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Soʻzlarni bogʻlovchi vositalarining soʻz birikmasi va gap tuzish jarayonida aloqa vazifasini bajarishi yuqoridagi fikrga qiyoslanganda ular orasida aloqadorlik mavjudligi ravshanlashadi. Zeroki, soʻzlarni bogʻlovchi vositalarsiz soʻzlar tizimining fikr ifodalashini tasavvur ham qilib boʻlmaydi. Maʼlum boʻladiki, soʻzlarni bogʻlovchi vositalar tilda oʻta muhim ahamiyatga ega vazifani bajaradi. Aloqa vositasi vazifasini bajarishda muhim vosita hisoblangan til va soʻzlarni bogʻlovchi vositalarning oraliq boʻgʻinlari aniqlanib, toʻldirilsa, aytish mumkinki, bunda ham til tizimining yana bir gradual munosabati tiklanadi.

Tilning serqirraligi, jozibasi va imkoniyati yana shunda yaqqol koʻrinadiki, til aʼzolarining oʻrni kelganda, til birliklaridan erkin maʼnodoshlik (vazifadoshlik) sifatida foydalanishidir. Bu holat (kelishiklar maʼnodoshligi: olmani yemoq – olmadan yemoq; kelishik va koʻmakchilar maʼnodoshligi: maktabga bormoq – maktab tomon bormoq; koʻmakchi, bogʻlovchi va va yuklamalar maʼnodoshligi: ruchka bilan daftar, ruchka va daftar, ruchka ham daftar; soʻz birikmalarining birikish usullarida kelishik va egalik shakllarining nokategorial shakllarga maʼnodoshligi: maktab bogʻi – maktabdagi bogʻ kabi koʻplab) soʻzlarni bogʻlovchi vositalarda keng aks etadi. Bunday hodisalar tilda alohida-alohida yoki maʼlum doirada oʻz ichki paradigmalari doirasida maxsus tadqiqotlarda batafsil oʻrganilgan

va o'rganilmoqda. Galdagi vazifalardan biri esa ularni graduonimik munosabatda tekshirib, "so'zlarni bog'lovchi vositalar" sifatida yagona paradigмага birlashtirishdir.

Tilshunoslar tomonidan til birliklari tadqiqi kuchaygan sari, ularni semantik, sintaktik vazifalarda pog'onali tartibda birlashtirish, paradigmalarini tiklash ishlari olib borilar ekan, katta guruhga birlashayotgan har bir uzvning o'ziga xos kichik vazifasini hisobga olmay xulosa chiqarish umumlashtirish (sintezlash) jarayonida ijobiy natija bermasligi ma'lum bo'lyapti.

Tilning asosiy o'rganish obyekti bo'lgan so'z o'zining asosiy vazifasini nutqda namoyon etadi. So'zlar shakllanib fikr ifodalanadi, so'zlovchining tinglovchiga axborotni qachon, qayerda, kim tomonidan, qay holatda, nima maqsadda, qaysi ma'noda yetkazilishi kabi omillar ta'sirida so'zning mavhum tushunchalarini nutqda aniqlashtirish imkoniyati voqelanadi. Shuningdek, yetkazilayotgan axborotning mikro yoki makromatndagi aloqasi, so'zlovchi va tinglovchi orasidagi madaniy saviya kabilar ham axborot yetkazish va qabul qilishda (makon va zamon muosabati asosida) ta'sir etuvchi omillar vazifasini bajaradi.

Ma'lumki, mustaqil so'zlar til taraqqiyoti jarayonida semantik jihatdan o'z leksik qobig'ini o'zgartirib, grammatik xarakter tusini oladi. Bu kabi tilning siljish qonuniyati ma'noviy mustaqillikdan nomustaqillikka tomon faqat bir tomonlama harakatlanadi. Biroq so'zning bir xarakter-xususiyatdan ikkinchi xarakter-xususiyatga o'tish jarayoni ma'lum bir muddatni talab qiladiki, bunday paytda ular oraliq uchinchi vazifasida yashab turadi. So'z kutilgan muddatdan so'ng o'z vazifasiga xoslanar ekan, tadqiqotchilar so'zning yo umuman siljish qonuniyatini to'la bosib o'tganini, yo siljish oqibatida so'zning ikki qutbli shakl hosil qilganini aniqlashadi, asoslashadi. Tilda siljish real qonuniyat (ayni haqiqat) ekan, bunda shu jarayonni boshdan kechirayotgan so'zning oraliq uchinchi vazifasida batamom qolib ketish holati mantiqan to'g'ri bo'lmaydi.

Ko‘makchi fe‘llar va ularning nutqiy ma‘nolari tilshunoslikda yetarlicha o‘rganilgan masalalaridandir<sup>18</sup>. Tilimizda 30 ga yaqin mavjud ko‘makchi fe‘l yetakchi fe‘ldagi ravishdoshning -a, -y, -(i)b shakllari bilan birikib nutqda o‘zining rang-barang ma‘no noziklarini ifodalaydi. Aniqroq qilib aytganda, ular yetakchi fe‘lning harakat tarzini aniqlashtirishga, muayyanlashtirishga xizmat qiladi. Ko‘makchi fe‘llarning nutqdan tashqarida lug‘aviy ma‘noga ega emasligi so‘zshakllarning ko‘makchi, bog‘lovchi kabi yordamchi so‘zlar turkumi bilan bir paradigma hosil qilishiga sabab bo‘ladi.

Faqat turkiy tillargagina xos bo‘lgan, tilimizning ko‘rki, jozibasini o‘zida tarannum etuvchi ko‘makchi fe‘llarni O‘zbek tilining izohli lug‘atiga alohida so‘zlik sifatida olib kirish ham mumkin. Bunday ko‘makchi fe‘llar tilimizda maxsuslashib, o‘z lug‘aviy ma‘nosidan ajralgan til birligi bo‘lib allaqachon shakllangan. Bizning nazarimizda, ko‘makchi fe‘llar ko‘makchilar, bog‘lovchilar, yuklamalar kabi yordamchi so‘zlarning alohida bir ko‘rinishidir. Ularning yetakchi fe‘lga qo‘shib va ajratib yozishdagi ayrim imloviy munozarali masalalar ham borki, bular tilimizda ko‘makchi fe‘llarni qayta ko‘rib chiqish masalasini talab etadi.

Ko‘makchilar ham ko‘makchi fe‘llar kabi leksik sathning mustaqil so‘zlar va yordamchi so‘zlar guruhida “ma‘noviy nomustaqillik” oppozitsiya belgisi ostida privativ ziddiyatda bo‘ladi. Belgili a‘zo sifatida yordamchi so‘zlar guruhi ajrala, belgisiz a‘zo mavqeini esa mustaqil so‘zlar egallaydi<sup>19</sup>. Ko‘makchi so‘zlarning ko‘makchi fe‘llardan farqli xususiyati shundaki, ularning bir qismida siljish jarayoni hanuz davom etayotgan bo‘lsa-da, tilda bu jarayonni to‘la bosib o‘tib, o‘zining istiqbolli yo‘liga tushib olgan birliklardir. Mustaqil so‘zlarning ko‘makchilashish jarayoni esa til qonuniyati sifati bardavom bo‘laveradi.

Ko‘makchi fe‘llarning xususiy va umumiy ma‘nolari “Harakat tarzi shakllari” nomi ostida semantik paradigmaga birlashtirib o‘rganilgan.

<sup>18</sup>Хожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. - Тошкент: Фан, 1966. - 222 б.

<sup>19</sup>Шукуров О.У. Ҳаракат тарзи шакллари парадигмаси.Филол.ф. номз. Дисс.– Самарқанд, 2005. 52-бет.



Ko‘makchilarning so‘zlarni bog‘lovchi vositalar bilan birgalikda hosil qiladigan paradigmasi esa sintaktik vazifaga xoslangani bilan farqlanadi.

Ko‘makchilar tobe qismni hokim qismga bog‘lash asosida SBV lar orasidan o‘rin oladi. Kelishiklar vazifasini bajarishga xoslanganligi, ma‘lum o‘rinlarda kelishiklar bilan ma‘nodoshlik munosabatida bo‘lishi ko‘makchilarning til uslublari doirasida farqlanishiga, nutqda uslub yaratuvchi vosita bo‘lishiga yordam beradi.

Ko‘makchilar predmetni predmetga yoki predmetni harakatga bo‘lgan sintaktik munosabatini shakllantiradi. Gap bo‘lagi jihatidan ular ikki bog‘lanuvchi so‘zning tobelanuvchi a‘zosi tarkibida o‘rinlashib, to‘ldiruvchi va hol vazifasida kelishga xoslaydi. Ko‘makchi bilan shakllangan ism-kesimning ishlatilish o‘mi nutqning tejamkorligi va so‘zlashuv uslubi jarayoni bilan bog‘liq hodisalardir.

Gramatik ma‘no ifodalovchi bu birliklar kelishiklar bilan ma‘nodoshlik munosabatida bo‘lganda ularning ma‘nosini aniqlovchi, to‘ldiruvchi vazifa bajaradi:



*Salimga oldim.*

*Salim uchun oldim.*

*Salimga atab oldim.*

Sintez tahlil (umumlashtirish) jarayoni tajribasidan ma‘lumki, narsalarning mohiyati shu paradigmaga birlashuvchi unsurlarga qiyosan ularning farqlari, o‘xshashliklari va umumiyliklari asosida ochiladi. Keltirilgan misollar taqqoslanganda jo‘nalishi kelishigi orqali (vositasida) ifodalangan “atash” ma‘nosining ko‘makchilar orqali konkretlashgani, darajalanish munosabatida kuchaygani seziladi. Bu holat esa darajalanish munosabati nafaqat kelishik shakllari orasida, balki bir butun paradigmadagi so‘zlarni bog‘lovchi vositalar doirasida birdek amal qilishini yana bir bor isbotlaydi.

## Yordamchi soʻzlar soʻzlarni bogʻlovchi vositalar tizimida

Soʻzlarni bogʻlovchi vositalar							
Tobe bogʻlovchilar						Teng bogʻlovchilar	
Kelishik	Egalik	Koʻmakchi	Feʼllarning munosabat shakllari	Feʼllarning nokategorial shakllari	Ohang va soʻz tartibi	Bogʻlovchi	Yuklama
Tobe va hokim qismlarni bogʻlaydi	Tobe va hokim qismlarni bogʻlaydi	Tobe va hokim qismlarni bogʻlaydi	Tobe va hokim qismlarni bogʻlaydi	Tobe va hokim qismlarni bogʻlaydi	Tobe va hokim qismlarni bogʻlaydi	Teng qismlarni bogʻlaydi	Teng qismlarni bogʻlaydi
Tobe qismda oʻrinlashadi	Tobe qismda oʻrinlashadi	Tobe qismda oʻrinlashadi	Tobe qismda oʻrinlashadi	Tobe qismda oʻrinlashadi	Tobe qismda oʻrinlashadi	Teng qismlar orasida oʻrinlashadi	Teng qismlar orasida oʻrinlashadi
Kelishiklarning gap boʻlaklarida SBV sifatida darajalanishi (bosh boʻlakdan quyiga tomon)	predmetga egalik qilish jihatidan uzoqlik-yaqinlik semasiga koʻra						
BK JK Oʻ-P K CHK TK QK	I shaxs  II shaxs  III shaxs						

Ega Hol, to'ldiruvchi Hol, to'ldiruvchi Hol, to'ldiruvchi To'ldiruvchi Aniqlovchi	menga tegishli, yaqin egalik  senga tegishli, nisbatan uzoq tegishlilik uniki, uzoq egalik						
Ism+ism; ism+fe'l							





## II bob bo'yicha xulosalar

O'zbek tilida so'zlarni bog'lovchi vositalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, grammatik ma'no ifodalash, so'zlarni o'zaro teng yoki tobe holda bog'lash, nutqqa kiritish, gap bo'laklari mavqeini ta'minlash, tobe-hokimlik munosabatini saqlab turish, til uslublari uchun imkoniyat yaratish, nutqiy tejamkorlikni ta'minlash, tilning ontolik xususiyatlarini ko'rsatishda katta ahamiyatga ega. So'zlarni bog'lovchilar sintaktik vositalar hisoblanib, ular so'z birikmasi va gap tuzish jarayonida tayanch vazifa bajaradi. Kelishik shakllari, egalik shakllari, ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalar (nokategorial shakllar) va boshqalar so'zlarni bog'lovchi vositalar hisoblanib, nutqda o'rni bilan vazifadosh til birliklari sifatida namoyon bo'ladi.

Bunday so'z-shakllar turli lisoniy sathlarga tegishli bo'lib, so'zlarni bog'lash vazifasi yuzasidan o'z lisoniy sathida ichida ichki, o'z lisoniy sathidan tashqarida (so'zlarni bog'lovchi vositalar bilan birgalikda) tashqi paradigmalarda gradual munosabatda ishtirok etadi. Bu esa tilning yaxlit tizim ekani, undagi birliklar esa doimo gradual munosabatda yashashini ko'rsatadi.

Til eng muhim aloqa vositasi hisoblanadi, aloqa esa keng ma'noga ega. Jamiyat a'zolari o'zlari uchun doimo tilga ehtiyoj sezishadi. Tilsiz jamiyat a'zolari hayotini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Biroq yozuv, imo-ishora kabi bir necha aloqa vositalari bo'lsa-da, ular tiling vazifasini to'liq bajara olmaydi. Shunday ekan, til jamiyatda aloqa vositasini bajarishi jihatidan ham ahamiyat kasb etadi. So'zlarni bog'lovchi vositalarlarning so'z birikmasi va gap tuzish jarayonida aloqa vazifasini bajarishi yuqoridagi fikrga qiyoslanganda ular orasida aloqadorlik mavjudligi ravshanlashadi. Zeroki, so'zlarni bog'lovchi vositalarlarsiz so'zlar tizimining fikr ifodalashini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Ma'lum bo'ladiki, so'zlarni bog'lovchi vositalar tilda o'ta muhim ahamiyatga ega vazifani bajaradi. Aloqa vositasi vazifasini bajarishda muhim vosita hisoblangan til va so'zlarni bog'lovchi vositalarning oraliq bo'g'inlari aniqlanib, to'ldirilsa, aytish mumkinki, bunda ham til tizimining yana bir gradual munosabati tiklanadi.

Ko‘makchilar ham ko‘makchi fe’llar kabi leksik sathning mustaqil so‘zlar va yordamchi so‘zlar guruhida “ma’noviy nomustaqillik” oppozitsiya belgisi ostida privativ ziddiyatda bo‘ladi. Belgili a’zo sifatida yordamchi so‘zlar guruhi ajrala, belgisiz a’zo mavqeini esa mustaqil so‘zlar egallaydi. Ko‘makchi so‘zlarning ko‘makchi fe’llardan farqli xususiyati shundaki, ularning bir qismida siljish jarayoni hanuz davom etayotgan bo‘lsa-da, tilda bu jarayonni to‘la bosib o‘tib, o‘zining istiqbolli yo‘liga tushib olgan birliklardir. Mustaqil so‘zlarning ko‘makchilashish jarayoni esa til qonuniyati sifati bardavom bo‘laveradi.

Ko‘makchilarning so‘zlarni bog‘lovchi vositalar bilan birgalikda hosil qiladigan paradigmasi sintaktik vazifaga xoslangani bilan farqlanadi.

Ko‘makchilar predmetni predmetga yoki predmetni harakatga bo‘lgan sintaktik munosabatini shakllantiradi. Gap bo‘lagi jihatidan ular ikki bog‘lanuvchi so‘zning tobelanuvchi a’zosi tarkibida o‘rinlashib, to‘ldiruvchi va hol vazifasida kelishga xoslaydi. Ko‘makchi bilan shakllangan ism-kesimning ishlatilish o‘rni nutqning tejamkorligi va so‘zlashuv uslubi jarayoni bilan bog‘liq hodisalardir.

Bog‘lovchilar “teng va tobe munosabatni ifodalash” umumiy ma’nosi ostida birlashadigan shakllar sirasida “leksik-grammatik vosita” tarkibiy unsuri bilan yordamchi so‘zlar va grammatik qo‘shimchalar sirasida oraliq o‘rinni egallaydi. Bu umumiy grammatik ma’no “tobelash”, “tenglash” oraliq grammatik ma’nolariga bo‘linadi.

Yuklamalar o‘z “bog‘lash” ma’nosining susayganligi va buning evaziga “subyektiv munosabat” ma’nosi kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Yuklamalarning umumiy grammatik ma’nosi, ya’ni substansial qiymati “qisman bog‘lash”, “asosan subyektiv munosabat ifodalash” oraliq grammatik ma’nolariga parchalanadi.

### III BOB

## YORDAMCHI SO‘ZLAR UMUMIY MA’NOSINING NUTQIY VOQELANISHI

Til murakkab qurilishli yaxlitlik bo‘lib, shu bois bu butunlik tarkibiy uzvlarning oddiy yig‘indisidan iborat emasligi, balki «hajman» ular yig‘indisidan kattaroq ekanligi sistem tekshirish jarayonida qator muammolarni yuzaga chiqaradi. Ma’lumki, lisoniy substansiya hech qachon bus-butun holda namoyon bo‘la olmaganligi sababli har bir nutqiy zuhurotda u ma’lum bir qirrasini namoyon qiladi. Shu boisdan lison va nutqning ushbu murakkab munosabati tufayli tadqiqotlarda tilning sistem tabiati bot-bot eslatib turilsa-da, muayyan tekshirishlarda sistemaviylikni asoslash muayyan sath doirasidan tashqariga chiqa olmaydi.

Lisoniy substansiya nutqda voqelanar ekan, bunda til tarkibiy uzvlarining dialektik munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi. Aniqrog‘i, muayyan sath birligining mohiyati shu sistema doirasida tiklansa, va, shunga muvofiq, uni voqelantirishda ishtirok etgan boshqa sath tajallilari chetlatilsa, mohiyatning yuzaga chiqishida, oraliq holatlar orqali hodisalar sifatida zohir bo‘lishi va farqlanishida boshqa sathlar tajallilarining roli va funksional qiymati masalasini aniqlash tilning yaxlit substansiyaligini ochishdagi muhim bosqichdir. Zero, til nutqda yaxlit sistema sifatida voqelanadi.

Til murakkab butunlik bo‘lib, uning tarkibiy qismlari sifatida fonologik, leksik (semantik), morfologik, sintaktik va uslubiy (funksional) sathlar ajratiladi. Til sistemaviy (butunlik) tabiatga ega ekanligi bois uning tarkibiy qismlari ham sistem xarakterdadir. Tilning har bir tarkibiy qismi, ya’ni sathining izchil sistemaviyligi, shuningdek, bu sistemaning butunlik sifatida o‘z tarkibiy qismlarining oddiy, arifmetik yig‘indisidan iborat emas, balki ular yig‘indisidan kattaroq alohidalik ekanligi uning sistemaviy tadqiqi jarayonida qator qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Zero, lisoniy substansiya hech qachon to‘la-to‘kis voqelanmaydi, lekin voqelangan har bir nutq parchasida uning turli zarralari



qorishgan holatda bo‘ladi. Nutqiy parchalar esa lisoniy paradigmatic sistemaviylikka ega bo‘lmagan, o‘z butunligidan uzilgan hodisalardir. Lison va nutqning mana shu murakkab munosabati tufayli ko‘p hollarda tilning sistemaviyligi deklarativ ravishda e‘tirof etiladi-yu, tadqiq jarayonida bu umumlisoniy sistema yaxlitlikda qamrab olinmaydi. Shu bois uzoq yillar davomida, asosan, nutqiy hodisalar bilan shug‘ullanib kelgan tilshunoslar uchun tilning sistemaviy tabiatini ilg‘ash imkoniyati vujudga kelmagan edi. Chunki nutqiy parchalarda turli sath birliklari o‘zaro qorishgan holatda voqelanadi va borliqqa obyektiv yondashuvchi tilshunos fahmiy-tavsifiy usul bilan o‘z obyektini tadqiq qilar ekan, shu qorishiq holatni o‘z tadqiqotida aks ettirishga majbur bo‘ladi.

Tilni sistema sifatida tadqiq etish kurtaklari aslida til sathlarini ajratish bilan bog‘liq. Biroq hozirgina qo‘llangan “tilni sistema sifatida o‘rganish” birikmasini “til sathlarini sistema sifatida o‘rganish” tarzida tushunmoq lozim. Zero, tilni sistema sifatida o‘rganish bilan lisoniy sathlarni sistema sifatida o‘rganish bir narsa emas. To‘g‘ri chiziqlarning xossalari va ularning tadqiqi uchburchaknikidan farq qilganligi kabi til ham sistema sifatida o‘z sathlari qonuniyatlaridan farq qiluvchi butunlik bo‘lib, uning qonuniyatlari va tadqiq usullari alohida sistemalar sifatida olingan fonologik, leksik, morfologik, sintaktik va uslubiy sathlar xossalari hamda o‘rganish qonuniyatlaridan ajralib turadi. Shuning uchun tilni yaxlit sistema sifatida o‘rganish insonshunoslik, jamiyatshunoslik kabi fanning alohida yo‘nalishini tashkil etsa, lisoniy sathlarni sistema sifatida o‘rganish tilshunoslikning maxsus bo‘limlariga xos vazifalardir. Tilning rivojlanish xususiyatlari, yashash sharoiti, o‘zining asosiy funksiyasi – fikrni shakllantirish va uni ifodalash vazifasini bajarishdek lisoniy sistemaning yaxlitlikda ado etadigan funksiyasini tadqiq qilish sotsiologiya bilan tilshunoslik oralig‘idagi alohida bir fan – XX asrning 2-yarmida Yevropa mamlakatlarida jadal rivojlangan, bizda esa endigina shakllanayotgan sotsiolingvistika yo‘nalishining tadqiq manbaidir.

### 3.1. Ko‘makchilar umumiy ma‘nosining nutqiy voqelanishi

O‘zbek tilidagi ko‘makchilarning substansial qiymati lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligida nutqiy xoslanadi - umumiy grammatik ma‘nolari xususiy grammatik ma‘nolarga aylanadi.

#### **Ko‘makchilar nutqiy qo‘llanishining umumiy masalalari.**

Ko‘makchilarning nutqiy qo‘llanishlari leksik, morfologik va sintaktik omillar vositasida yuzaga chiqadi. Quyida ulardan asosiylarini ko‘rib o‘tamiz.

*Orqali.* Bu ko‘makchi bosh kelishikdagi otlar bilan birikadi - “bosh kelishik+ko‘makchi” murakkab morfologik qolipining xususiy ko‘rinishidir. Bu ko‘makchili shaklning substansial ma‘nosi “tobelash” bo‘lib, quyidagi oraliq grammatik ma‘nolar (OGM) ni ifodalaydi:

a) “ish-harakat sodir bo‘lishida vosita bo‘lgan predmet yoki harakat” OGMsi: *Xatni pochta orqali jo‘natdim. U bu yutuqlarga hayotni real ifodalash orqali erishdi. U sarpolarning ovozasi kecha ko‘rib ketgan xotinlar orqali... shaharning yarmiga tarqaldi* (Oybek);

b) “ish-harakat sodir bo‘lishida vosita bo‘lgan o‘rin” OGMsi: *Solijon uyiga paxtazor orqali qaytdi.* Bunday hollarda orqali ko‘makchisi bilan ko‘makchisiga yoki chiqish kelishigi qo‘shimchasidan o‘rin-payt kelishigining affiksi *-da* ga sinonim bo‘ladi.

Ko‘makchi birikib kelayotgan ot qurol-yarog‘ ma‘nosini bildirganda *bilan* o‘rnida *orqali* ko‘makchisi ishlatilsa, uslubiy g‘alizlikka olib keladi: *Qo‘yni pichoq bilan so‘ydi. Dushmanni qilich bilan chopib tashladi.*

*Yarasha.* Bu ko‘makchi jo‘nalish kelishigidagi otlarga birikadi - “jo‘nalish kelishigi+ko‘makchi” murakkab morfologik qolipining xususiy ko‘rinishi hisoblanadi. Bu ko‘makchili shaklning substansial ma‘nosi “tobelash” bo‘lib, quyidagi oraliq grammatik ma‘nolar (OGM) ni ifodalaydi:

a) “jo‘nalish kelishidagi ot ifodalagan shaxs/predmetga teng, mos, loyiq, monand” OGM: *O‘zimizga yarasha to‘ycha qilamiz* (G‘.G‘ulom).

b) “jo‘nalish kelishidagi ot ifodalagan shaxs/predmetga asos, miqdor, o‘lchov” OGMsi: *Har kimdan qobiliyatiga yarasha mehnat talab qilinadi.*

*Doir.* Bu ko‘makchi bosh kelishikdagi otlar bilan birikadi - “jo‘nalish kelishigi+ko‘makchi” murakkab morfologik qolipining xususiy ko‘rinishidir. Bu ko‘makchili shaklning substansial ma‘nosi “tobelash” bo‘lib, quyidagi oraliq grammatik ma‘no (OGM) ni ifodalaydi: “jo‘nalish kelishidagi ot ifodalagan shaxs/predmetga taalluqli, alohidalik”: *O‘ktamning paxta, g‘alla, ipak va hokazoga doir savollariga Nasimjon... javob berdi* (Oybek). *Bu kimyoga doir gap* (P.Tursun).

*Asosan.* Bu ko‘makchi jo‘nalish kelishigidagi otlarga birikadi - “jo‘nalish kelishigi+ko‘makchi” murakkab morfologik qolipining xususiy ko‘rinishi hisoblanadi. Bu ko‘makchili shaklning substansial ma‘nosi “tobelash” bo‘lib, quyidagi oraliq grammatik ma‘no (OGM) ni ifodalaydi: “jo‘nalish kelishidagi ot ifodalagan shaxs/predmetga asos, tayanch, manba bo‘lgan obyekt”: *U xalq sudi ajrimiga asosan begunoh deb topildi.*

*Muvofiq.* Bu ko‘makchi jo‘nalish kelishigidagi otlarga birikadi - “jo‘nalish kelishigi+ko‘makchi” murakkab morfologik qolipining xususiy ko‘rinishi hisoblanadi. Bu ko‘makchili shaklning substansial ma‘nosi “tobelash” bo‘lib, quyidagi oraliq grammatik ma‘no (OGM) ni ifodalaydi: “jo‘nalish kelishidagi ot ifodalagan shaxs/predmetga muvofiq obyekt”: *Ularning o‘zaro pisandalariga muvofiq yangi yerlar, chiqarilgan suvlar Teshaboyga tekin o‘tadi* (M.Ismoilij).

*Qarata.* Ish-harakat yo‘nalgan predmet, shaxs, joy, tomon ma‘nosini, obyektini, ish-harakat kimga taalluqliligini bildiradi. Bu ko‘makchi jo‘nalish kelishigidagi otlarga birikadi - “jo‘nalish kelishigi+ko‘makchi” murakkab morfologik qolipining xususiy ko‘rinishi hisoblanadi. Bu ko‘makchili shaklning substansial ma‘nosi “tobelash” bo‘lib, quyidagi oraliq grammatik ma‘no (OGM) ni ifodalaydi: *Abdurahmon adolatsizlik oldida boy, mulla, eshon-u to‘ralarga qarata otilgan xalq toshi edi* (Y.Shukurov). *Olimlarga qarata, jumladan, fiziklarga qarata qilgan mening da‘vatim, hech shubhasiz, ingliz fiziklariga ham qaratilgan da‘vatdir.*

*Dovur.* Bu ko‘makchi jo‘nalish kelishigidagi otlarga birikadi - “jo‘nalish kelishigi+ko‘makchi” murakkab morfologik qolipining xususiy ko‘rinishi

hisoblanadi. Bu ko‘makchili shaklning substansial ma‘nosi “tobelash” bo‘lib, “o‘rin”, “payt” oraliq grammatik ma‘no (OGM) ni ifodalaydi: *Bo‘lmasa, kechga dovur o‘sha yoqdaman deng* (M.Ismoilij).

*Baravarida.* Bu ko‘makchi bosh kelishikdagi otlar bilan birikadi - “bosh kelishik+ko‘makchi” murakkab morfologik qolipining xususiy ko‘rinishidir. Bu ko‘makchili shaklning substansial ma‘nosi “tobelash” bo‘lib, quyidagi oraliq grammatik ma‘nolar (OGM) ni ifodalaydi:

a) “Vosita” OGMsini: (*bilan/birga/bilan barobar* kabi birikmali ko‘makchilarga teng keladi): *Shu maqola baravarida ma‘lum qilamanki, sud Ibrohimov mendan pora so‘ragani yolg‘on* (A.Qahhor);

б) “Hajm birligi” OGMsi: (bunday holatda *balandligida, tengligida* so‘zlariga ma‘no tomondan yaqinlashadi): *O‘raning chuqurligi ketmon bo‘yi barobarida. Agar suvni qaytarishga to‘g‘ri kelsa, ungurni suv barobarida yuqoridan chopib tushirish kerak bo‘ladi* (M.Ismoilij);

в) “Chog‘ishtirish” OGMsi (predmetlarning bir qiymatga ega ekanini, bir-biriga o‘xshashligini ifodalaydi): *Bizning yerlarda suv oltin baravarida yuradi.*

**Ko‘makchilar substansial qiymatining pragmatik xoslanishi.** O‘zbek tilshunosligida ko‘makchili qurilmalarning ayrim pragmatik ma‘nolari borasida bir necha maqola e‘lon qilingan<sup>20</sup>, maxsus monografik tadqiqot yaratilgan.<sup>21</sup> Bu tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab ko‘makchilarning nutqiy vaziyatda turli-tuman pragmatik vazifalarni bajarishidir. Ko‘makchilar o‘zlari ishtirok etgan sodda gaplar semantik tuzilishni murakkablashtiradi va pragmatik mo‘ljallarga ishora qiladi. U.Rahimov ham ko‘makchilarni pragmatik maqsadga yo‘l ochuvchi lingvistik vositalar qatorida beradi: “Yordamchi so‘zlar ichida yuklama va ko‘makchilar pragmatik botiniy ma‘no ifodalashda eng sarmahsul vositalardan hisoblanadi. Chunki yuklama va ko‘makchilar nutqning mazmun va formal jihatdan shakllanishida juda muhim vazifalar bajaradi. Shuning uchun gapning

<sup>20</sup>Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти.-1986.-№6.-Б.42-45; Лутфуллаева Д. Ўрнига кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. -1996. -№5. -Б.46-48.

<sup>21</sup>Бурхонов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиқлар прагматикаси: Филол.ф.н...дисс. Тошкент, 2008. – Б 9.

semantik strukturasi o‘zi sintaktik bog‘lanib kelgan so‘z bilan birgalikda alohida pragmatik botiniy ma‘no anglatib implitsit pragmatik botiniy ma‘noga vosita bo‘la oladi”.<sup>22</sup>

O‘zbek tilshunosligida ko‘makchilarning pragmatik xususiyatlari, ularning gap tarkibida tagma‘no va maqsadlarga ishora qilishi masalasi Z.Burhonov tomonidan maxsus o‘rganilgan, u ko‘makchilarning pragmatik vazifalarini ular bilan bir umumiy sistemani hosil qiluvchi vazifadosh kelishiklar bilan qiyoslagan. Z.Burhonov tadqiqotida ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar ishtirok etgan sodda gaplarning mazmuniy murakkablashuvi qonuniyatlari ochib berilgan. Ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklarning pragmatik xususiyatlarini tekshirish asosida ular ishtirokida tuzilgan gaplarda yashirin ifodalanuvchi propozitsiyalar aniqlanib, nutqda amal qilishining substansial sabablari ko‘rsatilgan.

Ko‘makchi ishora qiladigan pragmatik ifodalanadigan tagma‘no – uning yashirin ifoda xususiyatidir. Ya‘ni u o‘zi ishtirok etgan gap strukturasi grammatik ma‘nosiga bog‘liq holda pragmatik tagma‘noni shakllantiradi. Bu o‘rinda pragmatik tagma‘noga oid mazmuni uning qaysi kelishikdagi so‘zga birikishi emas, balki ko‘makchili konstruktsiya, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, ko‘makchining o‘zi yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, ko‘makchining gap semantik strukturasi implitsit va eksplitsit axborot ifodalashi xususida yoki soddaroq qilib aytganda, aynan ko‘makchilar pragmatik botiniy ma‘nosi sifatida baholash joiz. Ko‘makchili qurilmalar anglatadigan pragmatik botiniy ma‘no sintaktik strukturada namoyon bo‘ladi. Ma‘lumki, ko‘plab ilmiy adabiyotlarda, darsliklarda ko‘makchilar morfologik talabga ko‘ra ikkiga: sof va vazifadosh ko‘makchilarga ajratilgan holda o‘rganilib kelinmoqda. Ammo bu bo‘linish pragmatik botiniy ma‘no hodisasini aniqlashda hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. E‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Z.Burxonov ham bir nechta sof ko‘makchilarning pragmatik tagma‘noga oid holatini tahlil qilish bilan birga pragmatik botiniy ma‘no ifodalashda faol bo‘lgan (ba‘zi sof ko‘makchilardan ham)

<sup>22</sup>Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол.ф.н...дисс., Самарқанд, 1994.

*ko‘ra, tortib, qarab, qaraganda, boshlab, o‘rniga, o‘rnida, keyin, avval, ilgari, oldin, burun* kabi vazifadosh ko‘makchilarni tahlil doirasiga tortgan.

Tilimizda pragmatik botiniy ma‘noga ishora qilib, gapda pragmatik vazifa bajaruvchilar sifatida Z.Burhonov quyidagi ko‘makchilarni ko‘rsatgan: *bilan, uchun, kabi (singari, yanglig‘, o‘xshab), orqali, sababli (tufayli), boshqa (tashqari, o‘zga, bo‘lak), qadar dovur, misli (misoli, misol), o‘rniga, o‘rnida, qarshi, binoan, yarasha, muvofiq, bo‘yicha (bo‘yicha), asosan, nari (nariga), keyin (so‘ng), avval (ilgari, oldin, burun), beri (buyon), qarab, qaraganda, boshlab, ko‘ra, nisbatan, tortib.*<sup>23</sup> U mazkur ko‘makchilarning o‘zi birikib kelgan uzv bilan birgalikda pragmatik botiniy ma‘no shakllantirishini keng aspektda tahlil qilgan. Tadqiqotchi ko‘makchili qurilmalar qatnashgan gaplarning qurilish qolipini ifodalashda R.Sayfullayeva va M.Abuzalovanning qarashlariga tayangan.

Umuman, bu boradagi tadqiqotlarni kuzatishlarimizga tayangan holda ayta olamizki, ko‘makchilar turli mazmundagi pragmatik botiniy ma‘nolarni shakllantirishiga ko‘ra ikkiga ajraladi:

1. Pragmatik botiniy ma‘no ifodalashda faol bo‘lgan ko‘makchilar
2. Pragmatik botiniy ma‘no ifodalashda passiv bo‘lgan ko‘makchilar.

Z.Burhonov tahlil doirasiga tortgan barcha ko‘makchilar (*qadar, qarab* ko‘makchilaridan tashqari) faol pragmatik botiniy ma‘no ifodalovchi ko‘makchilar sanaladi. Demak, pragmatik botiniy ma‘no ifodalashda ko‘makchi sof bo‘ladimi, vazifadosh bo‘ladimi, uning ahamiyati yo‘q. Muhimi, o‘zi qatnashgan gap semantik strukturasi murakkablashtirib, turli mazmundagi pragmatik botiniy ma‘noni yuzaga keltirishi inobatga olinadi. Garchi Z.Burhonov mazkur tadqiqot ishida o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishgan bo‘lsa-da, ko‘makchilar pragmatik botiniy ma‘nosi masalasini oxiriga yetgan deb hisoblamaymiz. Zero, Z.Burhonovning tadqiqoti bu boradagi ishlarning boshlanishi uchun dastlabki dadil qadamdir. Chunki kelgusida har bir ko‘makchi qatnashgan konstruksiyadan anglashilgan pragmatik tagma‘noga oid holatlar muayyan tadqiqotlar uchun asos

<sup>23</sup> Бурхонов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадосх келишиклар прагматикаси: Филол.ф.н...дисс. Тошкент, 2008. – Б 10.

bo'lishi mumkin. Biz bu o'rinda ko'makchilarning kommunikativ samaradorligini, nutq jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlarini sun'iy ravishda bo'rttirayotganimiz yo'q, balki bu turkum so'zlarning qo'llanilish sohalarini kuzatishimiz natijasida shunday xulosaga keldik. Kuzatishlarimiz davomida amin bo'ldikki, ko'makchilar o'zlari ishtirok etgan gapni semantik jihatdan murakkablashtirib, o'zi ifodalayotgan grammatik ma'no asosida hokim uzv semantikasiga daxldor pragmatik botiniy ma'noga ishora qiladi. Shuning uchun ko'makchilarni pragmatik botiniy ma'no signalizatori sifatida, uni yuzaga keltiruvchi ishora vositasi sifatida baholaymiz. Ko'makchilar nutqiy vaziyat va matn bilan bog'liq holda turli pragmatik xususiyatlarini namoyon qilib, gapning semantik strukturasi bilan anglashiluvchi yashirin hukmni yuzaga chiqaruvchi vosita hisoblanadi.

Tilimizda ko'makchilarning ham aksariyatida pragmatik botiniy ma'noga ishora bor. Bizningcha, ko'plab tilshunoslarning har qanday gapda yashirin yoki oshkora hukmlar mavjud bo'lishi haqidagi g'oyalariga tayangan holda qolgan ko'makchilarda ham pragmatik botiniy ma'noga ishora mavjud yoki mavjud emasligini ko'rib chiqish istagi tug'ilsa-da, ishimizning hajmi chegaralanganligi sababli ko'makchilar pragmatik botiniy ma'nosiga oid tahlillar va misollarni keyingi ishlarimizda keltirishni lozim ko'rdik.

**Ko'makchilar substansial qiymatining badiiy uslubiy-pragmatik xoslanishi.** Bunday umumlingvistik vositalar yordamida hosil bo'lgan individual o'xshatishlar fikrning obrazlilikini, serbo'yoqligini yanada kuchaytiradi. H.Olimjonning "O'zbekiston" she'rida *go'yo* ko'makchisi yordamida qator original o'xshatishlar hosil qilinganki, bu hol she'rning jozibadorlik, ta'sirchanlik kuchini yanada oshirgan:

*Chiroylidir go'yo yosh kelin,*

*Ikki daryo yuvar kokilin.*

Bunday hollarda o'xshatish ko'pincha ketma-ket kelib, ham vositali, ham vositasiz hosil bo'lgan. O'xshatishlarning hamma ko'rinishining she'riy nutqda muhim o'rni bo'lsa-da, bu xildagi o'xshatishlar she'riy fikrning jozibador, ta'sirchan, obrazli bo'lishini yanada kuchaytiradi. Biz bu o'rinda o'xshatishning

ana shu turlari, shuningdek, poetik *bamisli, misli, misoli, yanglig'* so'zlari yordamida hosil bo'lgan vositali o'xshatishlar va poetik nutqqa xos bo'lgan vositasiz o'xshatishlar xususida ba'zi mulohazalarni bildirmoqchimiz. Bu o'rinda yana shuni ta'kidlash lozimki, o'xshatishning bu turida bir predmet bir necha predmetga o'xshatiladi. O'xshatishlar kutilmaganda, original ravishda hosil bo'ladi. Masalan:

*Karam ildizin chaynab olazarak tovushqon,  
Bo'rsiqday, yum-yumaloq, bir savat paxta kabi,  
O'spirin shoirlarday hijoga usta chaqqon,  
Kuzga madhiya o'qir tegmay labiga labi (G'.G'ulom).*

Bu she'riy parchada bir predmet bir necha predmetga o'xshatilgan. O'xshatiluvchi obyekt — tovushqon, *-day* affiksi va *kabi* ko'makchisi yordamida o'xshovchi obrazlar — bo'rsiq, bir savat paxta, o'spirin shoirga o'xshatilgan. Natijada nutqning obrazlilik yanada kuchayib, ta'sirchanlik orttirilgan.

Hozirgi o'zbek she'riyatida uchraydigan bir qator o'xshatishlar murakkabligi, ayni paytda, originalligi bilan ajralib turadi. Bunday o'xshatishlarda narsa yoki predmet bir predmet yoki narsaga vosita yordamida o'xshatilsa, ikkinchi bir narsa yoki predmetga vositasiz qiyoslanganini ham kuzatish mumkin.

Masalan:

*Tabiat saharda misli bir g'uncha,  
Tong esa g'unchaning ochilgan chog'i.  
Yoki taxmin qiling: tabiat bir qiz,  
Tong esa u qizning marmar yonog'i (Uyg'un).*

O'xshatilayotgan predmet tabiat va tong. Birinchi misrada tabiat g'unchaga o'xshatilgan. O'xshatish *misli* poetik ko'makchisi yordamida vujudga kelgan. Shuningdek, *bamisli, misli, misoli, yanglig'* poetizmlari o'xshatish hosil qiluvchi leksik vositalar bo'lib, *misoli, yanglig'* hozirgi o'zbek tilidagi *kabi, singari* ko'makchilariga, ba'zan *-day (-dek)* affiksli o'xshatish ifodalovchi so'zga sinonim bo'la oladi.

Masalan:



*Kuz. Salqin shabboda o'ynar beqaror.*

*Suvlarda aks etar musaffo falak.*

*Aylanib-aylanib tushadi yerga*

*Har yaproq misoli oltin kapalak (Uyg'un).*

To'rtinchi misrada fikr o'xshatish yo'li bilan ifodalangan. *Yaproq misoli* vositasida kapalakka o'xshatilgan. *Misoli* poetizmi bu o'rinda *kabi, singari, -day (-dek)* affiksilariga sinonim bo'la oladi. Masalan: *kapalak kabi, kapalak singari, kapalakday, kapalakdek*. Lekin bu vositalar ushbu kontekstda *misoli* poetizmi bajargan stilistik vazifani bajara olmaydi. Chunki *misoli* poetizmi ohang va poetik sintaksiga shu darajada mos tushganki, bu o'rinda boshqa vositani qo'llash fikriy ta'sirchanlikni susaytirishi mumkin.

She'riyatda ham xalq og'zaki ijodiga yaqin turgan she'riy asarlarda uchrab, misralardagi hijo muvofiqligini, xalq og'zaki ijodiga, so'zlashuv uslubiga xos soddalik, oddiylikni ta'minlaydi:

*Baxtiyor bilan Oygul*

*Qiz bo'lib ochilgan gul,*

*So'ylaguvchi devorlar,*

*Bola bo'p qolgan chollar (H.Olimjon).*

Bunday qisqartma shakllarning xalq og'zaki ijodi, folklor asarlarida uchrashi ham ularning so'zlashuv nutqiga xosligini ko'rsatadi. Bu xususiyat *nima* so'roq olmoshi va *uchun* ko'makchisining birikuvidan hosil bo'lgan *ne, uchun, nechun* shakllarida, *nima* so'roq olmoshi va *qilmoq* fe'lining *netmak, bilan* ko'makchisining *ila, nima* so'roq olmoshining *ne* qisqargan shakllarida ham mavjud bo'lib, ularning vujudga kelishida so'zlashuv tili muhim rol o'ynagan.

O'zbek she'riyatida analitik usulda qisqarib, qisqartma shakl hosil qilgan holda qo'llaniladigan quyidagi so'zlar uchraydi.

*Bilan* ko'makchisi *-la* affiksial shaklida o'zidan oldingi so'zga qisqarib qo'shiladi: *ellar-la, zavqi-la, ishq-la, kuchlar-la, oy-la, ohanglar-la, savati-la, sening-la, sevinch-la, umri-la, ufqlar-la, tovush-la, yuzlar-la* va boshqalar. Bunday qisqartmalar she'riy matnlarda ko'plab uchraydi: *Oy-la o'pishgan tog'lar oq*

*sochlarla ko‘rinar* (H.Olimjon). *Qir tuman-la burkandi* (Oybek). *Ko‘klam tongotarini kutib olmoqlik uchun, Alvon rang bayroqlar-la jahon sahni lolazor* (G‘.G‘ulom). *Ko‘z nuri-la bu chamanga beribdi pardozi* (E.Vohidov).

*Uchun* ko‘makchisi *-chun* shaklida o‘zidan oldingi so‘zga qisqarib qo‘shiladi: *Sening-chun, shuning-chun, yaxshilar-chun, saodati-chun, uning-chun* va boshqalar. Masalan: *Uning-chun vatandir har gulshan vodiy* (H.Olimjon. Kuychining xayoli). *Seni hech unutmas bu hurmat haqqing, shu Vatan, shu xalqing saodati-chun* (G‘.G‘ulom). *Piyolani inson shuning-chun o‘par doim peshonasidan* (E.Vohidov). *Qushda-chi, sabot yo‘q, shuning-chun unga, Qochib qolmoq uchun qanot berilgan* (A.Oripov).

### **3.2. Bog‘lovchilar umumiy grammatik ma‘nosining nutqiy voqelanishi**

**Bog‘lovchilar nutqiy qo‘llanishining umumiy masalalari.** O‘zbek tilida vositalarning ko‘pligi va rivojlanganligi nutqda qo‘llanishning chegaralanishi va ixtisoslashishga imkoniyat beradi. O‘zbek tilshunosligida vositalarning o‘zbek tili funksional uslublarga bag‘ishlangan M.Mukarramov va S.Karimovlar tadqiqotlarida bu haqda yo‘l-yo‘lakay aytilgan ayrim fikrlar mavjud. Bu ishlarda vositalar funksional nuqtai nazaridan faol va nofaollarga ajratilgan, ilmiy va badiiy uslub uchun xoslangan ba‘zi bir vositalar tahlil qilingan<sup>24</sup>. Faqat “O‘zbek tili stilistikasi” darsligida vositalarning amaliy voqelanish xususiyatlariga birmuncha keng o‘rin berilgan, bu turkum so‘zlarning pragmatik voqelanishi bilan bog‘liq pragmatik xoslangan ma‘no nozikliklari, teng vositalarning pragmatik vazifalari va substansial mushtaraklik xususiyatlari tahlil qilingan.<sup>25</sup>

Vositalarning tarixiy yodgorliklarda ishlatilishi masalasi ham fanimizda, asosan, grammatik tavsiflarda o‘rganilayotgan davrda vositalarning turlari va asosiy vazifalarini ko‘rsatish bilan chegaralanadi, stilistik-pragmatik vazifalar

<sup>24</sup>Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили.- Тошкент: Фан, 1984, -Б.102; Каримов С. Ўзбек тилининг бадийи услуби. – Самарқанд, 1992. -Б.69-70.

<sup>25</sup> Ўзбек тили стилстикаси / Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. -Б.178-187 ва 202-208. Бу қарашлар Н.Эрназаров томонидан таҳлил қилинган. Қаранг: Эрназаров Н. Бириктирувчи боғловчилар синонимияси // Ўзбек тили грамматик қурилиши масалалари. - Самарқанд, 1985. -Б.69-70.

tavsifi maxsus qo'yilmaydi. Faqat ayrim ishlarda bu haqda yo'l-yo'lakay ma'lumotlar beriladi, xolos.<sup>26</sup> Shuning uchun bu ishlar vositalarning pragmatik xoslangan konnotativ ma'nolari va pragmatik qiymati haqida yetarli tasavvur bera olmaydi, masalaning dolzarbligini kun tartibidan olmaydi.

O'zbek tili grammatikasi masalalari yoritilgan ilmiy-o'quv adabiyotlarida, tabiiyki, vosita nazariyasiga oid masalalarga to'xtalib o'tilgan, tasniflangan<sup>27</sup>, lekin bu ishlar ayrim chalkashliklardan ham xoli emas. Jumladan, "Hozirgi zamon o'zbek tili" darsligida -da yuklamasi vosita sifatida izohlangan.<sup>28</sup> Shuningdek, fanimizda ko'p yillardan beri na... na... yordamchisi goh vositalar turkumida, goh yuklamalar turkumida o'rganib kelinmoqda. Savol tug'iladi: biror vosita bir vaqtning o'zida ikki so'z turkumiga tegishli bo'lishi mumkinmi? Bunday baholash o'sha so'zlar substansial mohiyati ochilmaganligidan dalolat beradi. Keyingi yillarda na...na... yordamchisining yuklama ekanligi tilshunosligimizda o'z isbotini topdi.<sup>29</sup> Bu kabi yuklamalar ikkilamchi (yondosh) vazifa asosida ba'zan vositaga ko'chib, unga xos vazifani bajara oladi, lekin ba'zan ikkilamchi vazifasi birlamchi vazifasiga qaraganda faollashib ketishiga qaramay, uni boshqa turkumga ko'chganligi yoki omonimik holat yuzaga kelganligi haqida xulosa chiqarishga asos bo'lolmaydi. Bunday holatlar ma'lum turkum so'zlarning konversiyasi doirasida baholanishi zarur.

### **Bog'lovchilar substansial qiymatining pragmatik xoslanishi.**

Biriktiruvchi vositalar gapning uyushiq bo'laklarini, qo'shma gap tarkibidagi ayrim sodda gaplarni bir-biri bilan munosabatga kiritish jarayonida o'z substansial

<sup>26</sup> Юсупов К. Ўзбек тили адабий тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 1986. -Б.90.

<sup>27</sup> Матғозиев А. XIX аср ўзбек тилининг морфологияси.- Тошкент: Фан, 1977. -Б.184-187.; Ҳозирги замон ўзбек тили. – Т., 1957. -Б.503; Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л., 1960. -С.328-329.; Ҳозирги ўзбек адабий тили. Икки томлик. I том (фонетика, лексикология, морфология).-Тошкент: Фан,1966. -Б.360; Ўзбек тили грамматикаси. Икки томлик. I том. -Б.569; Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Т.: Ўқитувчи, 1978. -Б.148.; Шоабдурахмонов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. -Б.426; Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. Уч томлик. I том (морфология).- Т.: Фан, 1988. -Б.197; Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили.- Т.: Ўзбекистон, 1992. -Б.382-385; Нурмонов А., Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда.- Т.: Ўқитувчи, 1993. -Б.94.; Ўзбек халқ шевалари морфологияси. - Т.: Фан, 1984. -Б.234; Ўзбек халқ шевалари морфологияси. Т.: Фан, 1984. -Б.234; Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: ЎЗМЭ, 2002. -Б.104; Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. -Б.133; Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Конспект курс.- Бухоро: БухДУ нашри, 1999. -Б.216-220.

<sup>28</sup> Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: 1957. -Б.503-504.

<sup>29</sup> Расулов Р. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзларнинг семантик-грамматик хусусиятлари.- Т.: Фан, 1983. -Б.79-111.

xususiyatlarini namoyish etadi. Garchi ular bir umumiy ma’no doirasida birlashsalar-da, alohida pragmatik xoslangan ma’no nozikliklarini anglatishiga ko‘ra o‘zaro farqlanadilar.

O‘zbek adabiy tilida biriktiruvchi vositalardan eng faol qo‘llanadigani va vositasidir. O‘TILda va vositasi “teng huquqli gap bo‘laklari va gaplarni bog‘lash” substansial qiymatiga egaligi aytilgan.<sup>30</sup> She’riy matnlarda *va* ning anaforik qo‘llanish holatlari uchraydi. Bu matndan ifodalanayotgan pragmatik xoslangan ma’noning emotsional-ekspressivligini kuchaytirish bilan birga, ohangdorligiga ham ta’sir qiladi: *Men sizni sevaman / Va nafratlanaman, / Mayda tuyg‘ularni ko‘rmayman ravo* (У.АЗИМ) kabi.

“O‘zbek tili stilistikasi”da bu vositaning pragmatik xususiyatlari nisbatan batafsil izohlangan. Ushbu vositaga matnda ko‘pgina yordamchi vositalar, jumladan hamda *vositasi, bilan* ko‘makchisi va *-u(-yu),-da, ham* yuklamalari pragmatik qiymatdosh bo‘lib kela oladi. Garchi nutqda ularning biri ikkinchisi bilan o‘rin almashishi mumkin bo‘lsa-da, ular substansial-pragmatik xossalari jihatidan farqlanadi.

*Va, -u/-yu* vositalarining substansial umumiyliги va pragmatik o‘ziga xosligi. Gaplarni o‘zaro bog‘lashda ular bir xil grammatik vazifani bajarishi mumkin, ammo ular bog‘lagan birliklar o‘rtasidagi uzviylikda farq bo‘ladi. Masalan: *Ahmad keldi va ketdi – Ahmad keldiyu ketdi* gaplarini solishtirib ko‘raylik. Birinchi holatda harakatlararo tenglikdan tashqari, ularning bajarilishi vaqt nuqtai nazaridan chegaralanmagan, aytaylik, kecha kelib, bugun ketgan bo‘lishi mumkin. Harakatning bajarilishi haqidagi axborot ham betaraflik xarakterida – Ahmadning kelganligi haqida shunchaki ma’lumot berilmoqda, xolos. Ikkinchi holatda ham harakatlar o‘rtasidagi tenglikni inkor etib bo‘lmaydi, ammo ularning bajarilishi vaqt nuqtai nazaridan chegaralangan – harakat qisqa muddatda bajarilgan, tezlikda kelib, tezlikda ketilgan<sup>31</sup>. Bu harakatning xususiyati sifatida ularning substansial farqlarini anglatadi. Bu farq pragmatik vaziyat talabi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi.

<sup>30</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. -Б.430.

<sup>31</sup>Адабиётларда иккинчи ҳолатда боғланувчи бўлақлар ўртасидаги алоқа мустаҳкам бўлиши ҳам таъкидланган: *Қаранг: Ўзбек тили грамматикаси. икки томлик. I том. -Б.569.*

Shu bilan birga *keldiyu ketdi* da nutq muallifining subyektiv munosabati ham mavjud, ya'ni so'zlovchi Ahmadning harakatiga befarq emas, uning bajarilishini aniq ifodalashga intilish bor. Binobarin, *va*, *bilan*, *-u/ -yu* substansial mushtarakligi muayyan stilistik noziklik va farqlarga ega.

Yana bir jihat – *va* vositasi bog'layotgan bo'laklarning har birida alohida-alohida ta'kid bo'yog'i sezilib turadi, aksincha, *-u/-yu* bog'laganda esa bog'lanuvchi bo'laklararo yaxlitlik va uyg'unlik kuzatiladi. Shu sababli ularni hamisha ham almashtirib qo'llash maqsadga muvofiq emas. Masalan, *Bir gulgun o't yoqdi-yey, Kun va tun tutashgan joy* (U.Azim) matnidagi *va* o'rnida *u* (*kunu tun*) qo'llansa, kutilgan natija chiqmaydi. *Kunu tun* ko'pincha sutka ma'nosini ifodalagani uchun ham matn mazmuni o'zgaradi. Ularning almashinib qo'llanishiga uslubiy-pragmatik talablar sabab bo'lishi ham mumkin. She'riy matnlarda bu vositalarning almashtirilishi bo'g'inlar soniga ta'sir etmasa ham, o'qilish ohangiga ta'sir qiladi. *Va* o'zi bog'lagan bo'laklarning har birini alohida-alohida to'xtam bilan talaffuz etilishini taqozo etsa, *-u/-yu* yordamchilari ravonlikka xizmat qiladi, o'zidan oldingi yopiq bo'g'inni (demak, aruzda cho'ziq bo'g'inni) ochadi. Uning badiiy asarlarda keng pragmatik voqelanishining sabablaridan biri ham shunda.

$va \leftrightarrow -u/-yu$  substansial mohiyatining uyg'unligida *va* ning kitobiy, *-u/-yu* ning esa so'zlashuv uslubida faolligini ham qayd etib o'tish zarur. Shuning bilan birga, *-u/-yu*da ma'lum darajada yuklamalik pragmatik xususiyati mavjudligini va shu asosda *-da -u/-yu* yuklamalariga birmuncha yaqinlashishni ham eslatib o'tish joiz.

Tilimizda *va* bilan *-da* substansial mushtarakligi ham xos bo'lib, bunda *va* vositasida to'xtam, ta'kid bo'yog'i, ikkinchi holatda esa, harakat uzluksizligi, bajarilgan harakatning oniyiligiga ishora mavjud: *Bor-e, menga nima, dedim-da, chappa burilib yotib oldim* (T.Murod) - *Bor-e, menga nima, dedim va chappa burilib yotib oldim* kabi. Bu yordamchi vositalar o'rtasidagi substansial uyg'unlikni hamisha ham ma'qullab bo'lmaydi, ayrim hollarda esa *u* nazmiy talablar bilan ham bog'liq bo'ladi: *Bag'rimga nuringni to'yib bosmasdan /*

*Mag'ribda qizarding va bo'lding ado* (U.Azim) - *Mag'ribda qizarding-da, bo'lding ado* qiyosi uslubiy-pragmatik jihatdan to'g'ri kelmaydi. Garchi har ikki misra 11 bo'g'indan iborat bo'lsa-da, ikkinchi holatda turoqlar tartibi o'zgarib, birinchi misra 6+5 bo'lgani holda, ikkinchi misra esa 7+4 shakliga tushib qoladi, binobarin, she'riyatning asosiy talabi bo'lgan ohangdorlikka putur yetadi.

Shuningdek, *va* nutqda vositalashgan *bilan* ko'makchisi bilan pragmatik xoslangan substansial mushtaraklik munosabatida bo'lishi mumkin: *Hamon o'ftob charaqlab turar, chakalakzor tutun va olovga burkangan edi* (O'.Hoshimov) - *tutun bilan olovga kabi*. Har ikki gapning mazmuni bir xil, ammo ifodada pragmatik farqlar mavjud. Birinchi holatda sanash bo'yog'i, ikkinchi holatda sanash bilan birga ta'kidlash bo'yog'i ustunlik qiladi. Shu ma'noda ular bir xil pragmatik qiymatga ega bo'lolmaydi.

*Ham* yuklamasi ham vositaga ko'chganda *va* bilan o'rin almashishi mumkin: *Ahmad keldi va ketdi - Ahmad keldi ham ketdi*. Har ikki gapda bir xil mazmun anglashilayotganini e'tirof etgan holda, ikkinchi holatdagi qo'llanishni pragmatik jihatdan ma'qul deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham gapni *Ahmad keldi ham, ketdi ham* deb qo'llash mumkin bo'lgani holda o'zbek nutqida Ahmad keldi ham ketdi tarzida deyarli qo'llanilmaydi.

*Hamda* vositasining vositalashuvida ham o'ziga xoslik bor – ularda harakatni emas, shaxs va narsa-hodisani o'zaro bog'lashga moyillik kuchli: *Nakurtsoy esa yo'l-yo'lakay bir qancha katta-kichik daralar hamda Garasha qishlog'i suvi ila ko'payib To'sinsoyga quyiladi* (A.Suyun). Mana shunday paytda u *va* bilan o'rin almashishi mumkin. Ammo bu birlikning ko'makchilik holatidagi ekspressivlik imkoniyati vositalikdagiga qaraganda kuchlidir: *Ham shonli, ham beshan, hamda bechora / Xotira yukining og'ir karvoni* (U.Azim). Yordamchi vositaning pleonastik qo'llanishi ham ulardagi ta'kid bo'yog'ining ikki baravar kuchayishiga olib keladi, ham bo'g'inlar miqdori bilan bog'liq bo'lgan uslubiy-pragmatik talabga javob beriladi.

Hamda kitobiy xarakterda bo'lib, rasmiy, ilmiy, publitsistik uslublarda faol qo'llaniladi. So'zlashuv uslubida esa bunday emas. U uyushgan bo'laklarning

oxirgi qismida kelganda bo‘laklararo tenglikni ko‘rsatish bilan birga, oxirgi bo‘lakni ajratadi va ta’kidlaydi: *Byuro uch kishidan iborat bo‘lsin degan taklif bor. Saida Aliyeva, Umida Umarova hamda Usmonjon Umarov!* (A.Qahhor). Mana shu jihatlari bilan o‘ziga qiymatdosh bo‘lgan boshqa yordamchi vositalardan farqlanadi.

Zidlov vositalari matnda turli-tuman uslubiy va pragmatik xususiyatlarini namoyon etadi. Masalan, ammo, biroq vositalari nisbatan kitobiy, lekin esa uslubiy va pragmatik betaraf, neytral. Bundan tashqari, ammo yordamchisi bir ma’nosida vosita bo‘lib, lekin, biroq vositalariga qiymatdosh bo‘lsa, ikkinchi ma’nosida yuklamadir.<sup>32</sup> Darhaqiqat, *ammoning* asosiy substansial qiymatdoshlari lekin va biroq vositalaridir: Jahllari yomon edi... Ammo “u yoq”dagi gaplarni hech gapirmasdilar! (O‘.Hoshimov) - *Lekin “u yoq”dagi gaplarni hech gapirmasdilar! Biroq “u yoq”dagi gaplarni hech gapirmasdilar!* Qiyoslanayotgan vositalar stilistik jihatdan bir doirada – kitobiylik ruhida bo‘lganligi bois, ular ma’no nozikliklaridagi farqlar deyarli sezilmaydi. Bu farqlar -u/-yu bilan bo‘lgan almashinuvda ko‘zga tashlanadi: *Boshqalarni bilmadim-u, menga «tochka»da turishdan ko‘ra shunisi ko‘proq yoqadi* (O‘.Hoshimov) - *Boshqalarni bilmadim, ammo menga «tochka»da turishdan ko‘ra shunisi ko‘proq yoqadi.* Har ikkala holatda ham mustaqil gaplarni o‘zaro bog‘layotgan, ular o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalayotgan va subyektiv munosabat ham anglashilib turgan bo‘lsa-da, bu vositalarning ifoda darajasi ikki xil – -u/-yu ishtirok etgan holatda mayinlik, ammo qo‘llangan gapda esa qat’iyat ohangi sezilib turadi. Mana shu jihatdan *ammoga* substansial qiymatdosh bo‘lishi mumkin bo‘lgan, gaplar o‘rtasidagi zidlik ma’nosini bera oladigan -ku ning ekspressivlik kuchi ularning har ikkalasiga qaraganda yuqori ekanligi ma’lum bo‘ladi: *Oyoqlari ipdek, puf desang uchib ketadigan holi bor-ku, miq etmaydi, eshshak!* (O‘.Hoshimov) - *Oyoqlari ipdek, puf desang uchib ketadigan holi bor, ammo miq etmaydi, eshshak!* Mana shu yordamchi vositalar tufayli gaplarning ma’nosi bo‘rttiriladi – -ku tufayli ikkinchi gap, ammo yordamida birinchi gap mantiqiy urg‘u oladi va shu yo‘l bilan ulardagi

<sup>32</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. -Б.79.

fikrning muhimligiga ishora qilinadi. Ayni paytda, -ku ning so‘zlashuv uslubida nihoyatda faol ekanligini ta’kidlash lozim.

Shuningdek, ammo, lekin va -ku substansial uyg‘unlikdan tashqari ularning yonma-yon kelish holatlari ham uchraydi: *Albatta, boshqa odamning yerini ham ekaverasiz-ku, ammo domladay ochiq qo‘lli odamni yo topasiz, yo yo‘q* (A.Qahhor). Buning ostida zidlanishning meyardan baland darajada ekanligini ta’kidlashdek pragmatik mazmunni ifodalash maqsadi yotadi.

*Ammo* bilan arxaiklashgan *illo* vositasi ham substansial qiymatdoshlikni yuzaga keltiradi: *Gullar tanidagi mudroqlikni sez. Illo, sen uxlashga shoshilma sira* (A.Suyun) - *Ammo, sen uxlashga shoshilma sira.* Hozirgi tilimiz nuqtai nazaridan eskirgan elementlarning badiiy uslubda saqlanib qolish tamoyili bu yerda ham amaldadir. Ba’zan ularning mikromatn tarkibida qo‘llanishi qaytariqni bartaraf etadi va pragmatik ravonlikka xizmat qiladi: *Bizdan zolimga ammo Qanday imdod bo‘lgusi? / Ne qilsak uning, illo, Ko‘ngli, qo‘nji to‘lg‘usi?* (A.Suyun) kabi.

Garchi kamdan-kam hollarda uchrasa-da, yordamchi vositalarning pleonastik qo‘llanishi badiiy tasvirdagi alohida bir usul sifatida namoyon bo‘ladi: *Sirtmoqlar yasaydir uzun va illo – Gulchambarlar emish menga atalgan* (A.Suyun) yoki *Yurtimiz tinch bo‘lsin, illo-billo qirg‘inbarot bo‘lmasin* (O‘.Hoshimov).

Zidlov vositalar ba’zan gapning boshida keladi: *Pastak non do‘konining derazasida chiroq bor. Qizg‘ish nur tushib turibdi. Ammo non mashinasi ko‘rinmaydi* (O‘.Hoshimov). Imlo nuqtai nazardan bu holatni ijobiy baholab bo‘lmaydi. Sh.Rahmatullayev buning sababini qo‘shma gapshakllarning birinchi qismi tugal to‘xtam bilan aytilishida, deb izohlaydi.<sup>33</sup> Vositaning bu tarzda qo‘llanishida prozaik va uslubiy matnlar o‘zaro farqlanishi ma’lum bo‘ladi. Boshqacha aytganda, poeziyada bu kabi holatlarni tez-tez uchratish mumkin: *Dunyo degan shundayin anglab bo‘lmas sir ekan / Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan...*(A.Oripov). *Ammo* va *lekin* qo‘llanilgan matnda ba’zan qo‘shma gap

<sup>33</sup>Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili – T.: Universitet, 2006. -B.397.



qismlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri zidlamasdan, fikrni ravon ifodalash uchun ham xizmat qilishi mumkin. Bunday holda zidlash, qarama-qarshi qo‘yish ma‘nolari kuchsizlanadi va ifodada oniy pauza vujudga keladi, oldingi fikrga qisqacha yakun yasaladi va navbatdagi fikr beriladi. Bunday ifoda uslubiy-pragmatik jihatdan ham maqsadga muvofiqdir va u ham fikrni ravon ifodalashning bir usulidir. *Urush odamning diydasini qotirib yuboradi deyishadi. Bo‘lsa bordir. Ammo kelib-kelib, farishtadek beozor yigitning o‘lishi...*(O‘.Hoshimov)

Uslubiy matnda keltirilishidan qat’i nazar, *ammo* ning takrorini ham adabiy til meyorining buzilishi deb qarash lozim: *Ammo, ammo sen ketasan, ma’lum intiho / Yurakda tizilib qoladi izing* (M.Hasanova).

*Ammo* va *lekin* elementlarining juftlashib, *ammo-lekin* tarzida pleonastik qo‘llanishi dastlab so‘zlashuv nutqida, keyinchalik esa adabiy tilda ham meyo‘r holatiga kelgan: *Pichagina o‘tibdi. Ammo-lekin haliyam kech emas* (T.Murod). U matnda *ammo* birdaniga ikki vazifani – ham bog‘lovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajarmoqda.

*Lekin* vositasi, eng avvalo, zidlovchi vosita, *ammo* unda tranpozitsiya asosida ot vazifasida kelib, qilinayotgan ish-harakatning zaminida boshqa maqsad, ketidan keladigan boshqa narsa borligini ifodalaydi.<sup>34</sup> *Bitta lekini bor, Arslonbek aka, - dedi Saida, - sizni byuroga kirgizmaslikka bironta ham kommunist rozi bo‘lmasa kerak* (A.Qahhor). Bunday otlashish ham aslida undagi tasviriy imkoniyatning kengayishidir. Agar bu otlashgan vosita juftlashsa, ifoda yana ham bo‘rttirilgan, subyektiv munosabat singdirilgan, presuppozitiv holatda namoyon bo‘ladi: - *Gapingiz, ma’qul, uka, lekin...*- *Lekin-pekini yo‘q, - dedi Qulmuhammad Elomonovga so‘z bermay* (M.M.Do‘st).

*Biroq* bog‘lovchisi teng ma‘no va vazifali gap bo‘laklari yoki gaplarni zidlov yo‘li bilan bog‘laydi hamda mazmunan avvalgisiga zid fikrning boshlanishini anglatadi.<sup>35</sup> Pragmatik jihatdan olib qaraganda unda kitobiylik bo‘yog‘i ustunlik qiladi, ilmiy va rasmiy uslublarda nisbatan ko‘proq ishlatiladi:

<sup>34</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. -Б.495.

<sup>35</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. -Б.279.

rasmiy uslubda: *Diplomatik manbalarning xabar berishlaricha, Livan ma'muriyati tinchlikparvar missiya faoliyatini bir yilga uzaytirishni so'ragan. Biroq BMT Xavfsizlik Kengashining 15 a'zosi missiya faoliyatini faqat yarim yilga uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan («Запафшон»); ilmiy uslubda: Sinergetikada bu ikki paralellikni yangi sifatlarning paydo bo'lishida fundamental ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Biroq, olim uni dissipativ sistemalar selektiv rivoji nazariyasi deb ataydi.*

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, *biroq* ning gap boshida kelishi ko'p uchraydi va pragmatik xoslangan ma'no kasb etadi, ya'ni birinchi gapdagi ma'noni chuqur anglash va his qilish uchun nuqta qo'yilib, o'quvchining diqqati jalb qilinadi. Keyin uning hukmiga ikkinchi gapning mazmuni havola qilinib, gaplar zidlov vositasi orqali bog'lanadi. O'quvchi gaplardagi mazmunni umumlashtirish orqali ularning qarama-qarshi mazmunini ongida sintezlaydi va shu jarayonda zidlov vositasining vazifasi boshqa holatlaridan (asosan gap ichida kelgan holatlardan) yiriklashgani seziladi. Aslida birinchi gap oxirida nuqta yoki vergul qo'yish, ikkinchi gapning bosh harf yoki kichik harf bilan boshlanishi ifoda mohiyatini va *biroq* ning pragmatik qiymatini o'zgartirmaydi: *To'g'ri, bobosi - eshon, ya'ni dushman, otasi - yapon razvedkasi agenti, u ham dushman. Biroq Qurbonoy dushman emas. Unsur bo'lsayam ongsiz, tasodifiy unsur.* (O'.Hoshimov). *Biroq* yordamida yuzaga chiqayotgan zidlanish bo'yog'i har ikki holatda ham anglashilaveradi.

Zidlovchi vositalar doirasidagi *ammo, lekin, biroq, -u/-yu, -ku* singari vositalar bir substansial qiymatdoshik uyasiga birlashadi. Bu uyaga *shunga qaramasdan* birikmasini ham kiritish mumkin. Substansial qiymatdoshik munosabatga kirishish jarayonida ular ikki qutbga – kitobiy va jonli til uslublariga ajraladi. *Ammo, lekin, biroq, shunga qaramasdan* kabilar qutbning birinchi qismidan, *-u/-yu, -ku* esa ikkinchi qismidan joy oladi. Nutqda bu semantik yaqinliklarga tayanilgan o'zaro almashinib qo'llanishlarda yana boshqa stilistik xususiyatlar ham namoyon bo'ladi. Masalan, *O'zi yaxshi yigit ekan-u, bir kuni onasini xafa qilib qo'yibdi.* (O'.Hoshimov) - *O'zi yaxshi yigit ekan, biroq bir kuni*

*onasini xafa qilib qo'yibdi* gaplarida aynan *-u/-yu, -kuva biroq* tufayli ifoda mazmunida noziklar sodir bo'ladi. *O'zi yaxshi yigit ekan-u* deyilganda so'zlovchining nafaqat voqelikdan xabardor ekanligi, ayni paytda, subyektga nisbatan achinish hissi ham ifoda etiladi. Ikkinchidan esa, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'rtasida ziddiyat ifodasi kuchsizlangan. Ikkinchi gap tarkibidagi *O'zi yaxshi yigit ekan* jumlasidan esa voqelikka nisbatan betaraflik, befarqlik va bundan kelib chiqadigan oddiy axborot ifodasi anglashiladi. Subyektiv munosabat sezilmaydi. Birinchi gapdan payqalmagan bu munosabat *biroq* tufayli ikkinchi gapdan anglashiladi. Aynan shu vosita tufayli e'tibor ikkinchi gap tarkibidagi *bir kuni onasini xafa qilib qo'yibdi* jumlasiga ko'chadi. Savol tug'iladi: ifodada qaysi fikr muhim – bolaning yaxshi ekanligimi yoki uning onasini xafa qilib qo'yganligimi? Bu savolga so'zlovchining javobi asosida yordamchi vosita tanlanadi – zeroki, uning pragmatik qiymati ham ana shunda.

*Balki* vositasi gapda ikki vazifada – vositalik va kirish (modal) so'z bo'lib keladi.<sup>36</sup> Ayrim manbalarda *balki* funksional vositasining balki modal so'zidan farqlash lozimligi uqtirilgan.<sup>37</sup>

U zidlov vositalari bilan bir guruhda qarab kelinayotgan bo'lsa-da, semantik-pragmatik jihatdan *ammo, lekin, biroq* vositalaridan farq qiladi, ular bilan erkin substansial qiymatdoshik munosabatga kirisha olmaydi. Bu yordamchi so'zning grammatik tabiatini A.Hojiyev quyidagicha ifodalagan: "Hozirgi o'zbek adabiy tilida balki so'zi gumon mazmunli gaplarda, shuningdek, zid mazmunli komponentlarga ega gaplarda ana shu ma'nolarni (gumon, qarama-qarshilik ma'nolarini) ta'kidlash uchun qo'llanadi va ta'kid yuklamasi hisoblanadi. Zid mazmunli gaplardagi *balki* so'zini ba'zi hollarda tushirib qoldirish mumkin bo'lmasa-da, lekin shunda ham u sof vosita bo'lmaydi, *balki* vosita funksiyasini ham bajarayotgan yuklama hisoblanadi".<sup>38</sup> Olimning ushbu mulohazasi ayrim yuklamalarning bog'lovchi vosita vazifasini bajarishi mumkinligi, birining vazifasini ikkinchisi bajara olish xususiyati barcha yordamchi so'zlarga xos

<sup>36</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. -Б.149.

<sup>37</sup>Турсунов У. ва бошқ. Кўрсатилган асар-Б.110.

<sup>38</sup>Ҳожиёва А. Ҳозирги ўзбек адабий тили боғловчилари ҳақида мулоҳазалар. –Б.53

ekanligi to‘g‘risidagi qarashlarning davomi bo‘lish bilan birga, balki so‘zining ham vosita vazifasini bajaruvchilardan biri ekanligini ta’kidlaydi. Chunki *balki bog‘lovchi* vazifasini bajarib kelgan sintaktik butunliklarda bog‘lashdan tashqari, ta’kidlash bo‘yog‘i ham, subyektiv baho munosabati ham sezilib turadi. Masalan: - *U bilan... apoq-chapoqmisiz deyman? – dedi. – Balki qo‘lidagi bolasiyam... o‘zlariga qarashlidir, o‘rtoq rais?* (T.Murod) kabi. *Balki* vositasi anglatadigan zidlash ma’nosidan ko‘ra subyektiv munosabat ustunlik qiladi. Bu yordamchi polisemantik xususiyatga ega bo‘lib, matnda ta’kid yuklamasi, modal so‘z va zidlovchi vosita vazifalarini bajaradi. Ba’zan uning yuklamalik va vositalik xususiyatlari bir matn doirasida ham kuzatiladi. Masalan, *Men balki gaz-suv sotarman, balki bozorda «svejiy» go‘sh t ko‘tarib yuradigan chayqovchidirman, balki to‘yma-to‘y sang‘iydigan otarchidirman, balki o‘taketgan qallob, tovlamachidirman...* (E.A’zam) kabi.

*Balki* nafaqat bog‘lovchi, balki modal so‘z sifatida ham faol ishlatiladi: *Umrimda ko‘rmagan o‘g‘lini maqtaydi. O‘qituvchi deydi. Boshimga uramanmi! - Balki, o‘g‘li rostdan ham yaxshi boladir...* (O‘.Hoshimov) kabi.

*Balki* yordamchisi funksional jihatdan badiiy, publitsistik uslublarda faol qo‘llanilsa, ilmiy va rasmiy uslubda buning aksidir. So‘zlashuv uslubida nutqiy muloqot jarayonida uning *balkim* varianti faol qo‘llaniladi: - *Kim biladi, balkim namoz o‘qimoqni ixtiyor etgandir?* (T.Murod) kabi.

*Holbuki* O‘TILda zidlov bog‘lovchisi sifatida berilib, ma’nosi (mazmuni) bir-biriga qarama-qarshi (zid) bo‘lgan qo‘shma gap tarkibidagi gaplarni bog‘lash uchun xizmat qilishi va aslida esa, biroq ma’nolarini ifodalashi aytilgan.<sup>39</sup> Lug‘atning shu sahifasida *gap shundaki, haqiqatda esa, holbuki* ma’nolarini beradigan *vaholanki* so‘zi ham keltirilgan. Shuningdek, O‘TILda *vaholanki/vaholonki* so‘zi ham vosita sifatida talqin qilinib, holbuki ma’nosida ekanligi va teng huquqli, lekin zid ma’noli gaplarni bog‘lash uchun xizmat qilishi

<sup>39</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. -Б.549.

ta'kidlangan.<sup>40</sup> *Holbuki* qo'shma gap tarkibidagi ma'nolari bir-biriga zid bo'lgan ikki sodda gapni o'zaro bog'lashga xizmat qiladi: *Yoshlarning sarasi yoshligiga rioya talab qilmaydi, holbuki, ilgari yoshlikda yoshligiga, qariganida qarib qolganiga rioya talab qilib o'tgan kishilar oz emas edi* (A.Qahhor) kabi. Sirdan qaraganda mazkur so'zning bahosi shu. Ammo bu baho bir tomonlama – u faqat so'zning grammatik vazifasini qamrab olgan, xolos. Aslida esa uning imkoniyati grammatika doirasida chegaralanib qolmaydi.

*Holbuki* qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'rtasida zidlov vositasi vazifasini bajarganda *biroq, ammo* bilan substansial qiymatdosh bo'ladi. Masalan: 1) *biroq* bilan: *O'zingday hayron turdim: Yashil edi butoqlar, Holbuki, tan, ildizi Qurib-chirib bitgandi* (A.Suyun); 2) *ammo* bilan: *Undan keyin avtor bir qator familiyalarni buzib ko'rsatgan, masalan: Shodiyev deyiladi, holbuki Shotiyev bo'lishi kerak!* (A.Qahhor).

*Holbuki* va *biroq, ammo* substansial uyg'unlikni doimiy holat deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi. Ularni o'zaro almashtirish butunlay mantiqsizlikka olib kelishi ham mumkin: *Harakatlaring yaxshi, ammo hozircha sen aralashmay tur* (So'zlashuv nutqidan) deyish mumkin bo'lgani holda *Harakatlaring yaxshi, holbuki hozircha sen aralashmay tur* deyish mutlaqo mumkin emas. Bu *holbuki* elementida subyektiv munosabatning mavjudligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham A.Qahhor "Bizning mulohazalarimiz" deb nomlangan felyetonida *ammo, lekin, biroq* ning birini emas, balki *holbuki* ni qo'llaydi: *Ro'yxatda takror ham uchraydi, masalan: O.Jo'rayev, I.Jo'rayev, U.Jo'rayev deb yoziladi, holbuki ixchamlashtirib O. I. U.Jo'rayev deb yozilsa, ro'yxatning qimmatini yana ham ortar edi*. Asar qahramoni chalasavod taqrizchi o'z mulohazasining to'g'ri ekanligiga, ya'ni *O.Jo'rayev, I.Jo'rayev, U.Jo'rayev* o'rniga *O.I.U.Jo'rayev* deb yozish maqsadga muvofiq bo'lishiga qattiq ishonadi. Mana shu o'rinda qahramon obrazining yaratilishida *holbuki* ning roli nihoyatda katta. Taqrizchidagi o'z fikriga ishonch va uni kuyunchalik bilan ifodalash ana shu so'z zimmasida turibdi. Agar u

---

<sup>40</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. -Б.452. Ш.Раҳматуллаевнинг «Ўзбек тилининг этимологик луғати»да бу сўзлардан фақат *ҳолбукига* изоҳ берилган.

o‘z substansial qiymatdoshik uyasidagi boshqa so‘z bilan almashtirilsa, ifoda mazmuni o‘zgaradi, subyektiv munosabat o‘rnini befarqlik ohangi egallaydi.

Binobarin, holbuki yordamchisida zidlashdan ko‘ra modallik ko‘proq namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham uning ekspressivlik qimmati uyadoshlarinikiga qaraganda yuqori turadi. Uning badiiy-publitsistik uslubga xoslanuvining boisi ham shu: *Jurnalda yoshlarga tarbiya va kengashni reklama qilamiz, holbuki bir yosh yozuvchi yigirmalab asar yuborib bir og‘iz maslahat ololmaydi* (A.Qahhor). Shu ma’noda unga *vaholanki* elementi teng kelishi mumkin: *Vaholanki, shunday tahlil berilgandagina o‘shanday ommaviy gazeta sahifalarida bu tariqa narsalarni ketma-ket e‘lon qilishdan biron ma‘no chiqardi* (A.Qahhor) kabi.

Tahlillar bu tizimdagi *vaholanki* ning badiiy matnlardan ko‘ra publitsistik asarlar uslubiga mos kelishini ko‘rsatadi. Bu esa so‘zdagi qat’iyat, keskinlik bo‘yog‘ining ustunligi va publitsistik janrning jangvorlik xususiyatiga muvofiq kelishi bilan izohlanadi. Masalan: *Alyumin zavodi, chegaraning ayrim qismlari yuzasidan nizolar bo‘yicha ham shunday yo‘l tutildi. Vaholanki, bunda Tojikiston davlatiga, xalqiga nisbatan zarracha salbiy gap aytilmadi* («Yoshlik»).

Zidlovchi tizimida qarash mumkin bo‘lgan *holanki* so‘zi ham mavjud va u O‘TILda vaholankining aynan o‘zi deb izohlangan.<sup>41</sup> Shunga ko‘ra ularni variantlar sifatida qarashimiz mumkin. Ammo *holanki* ning faqat badiiy uslubga xoslanganligi va nihoyatda kam qo‘llanishi bu ikki elementni o‘zaro farqlashga asos bo‘ladi.

Ushbu tizimdagi vositalarning tasviriylik va ekspressivlik darajasini aniqlash maqsadida statistik tahlil o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. Masalan, A.Qahhorning besh jildlik «Asarlar» to‘plamida lekin – 1030, ammo – 369, biroq – 257 marta qo‘llangani holda holbuki – 38 marta, vaholanki esa faqat 1 marta qo‘llangan. Biron bir til elementining qo‘llanish chastotasidagi kamlikni ekspressivlikning o‘lchovi deb baholash to‘g‘ri bo‘lmasa-da, holbuki va vaholanki qo‘llangan 39 holat ularda ekspressivlik mavjudligini ko‘rsatadi.

<sup>41</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. -Б.549.

Ayiruv vositalardan bo‘lgan *goh...*, *goh*; *xoh...*, *xoh*; *dam...*, *dam*; *bir...*, *bir*; *ba‘zan...*, *ba‘zan...* kabi ish-harakat, hodisaning galma-gal bo‘lishini anglatuvchi turlari ham matnda turli pragmatik xoslangan ma‘nolarni yuzaga chiqaradi. Masalan, tilimizda *goh*, *xoh* kabi o‘zlashma so‘zlar grammatizatsiyaga uchrab, yuklamaga ko‘chgan. Til taraqqiyotning ma‘lum bosqichida esa bu so‘zlar vositalik vazifasini bajara boshlagan. Natijada hozirgi tilimizda «ayiruv vositalar»ning alohida guruhi shakllangan. Ayiruv vositalarining taraqqiyot bosqichlarini shunday ko‘rsatish mumkin: *arabcha yoki forsha mustaqil so‘zlar*→*mustaqil yordamchi so‘zlar*→*yuklamalar*→*vositalar* kabi. Ular badiiy, publitsistik, so‘zlashuv uslublarida faol bo‘lib, rasmiy va ilmiy uslublarda kam ishtirok etadi. O‘zaro va boshqa grammatik vositalar bilan substansial mushtaraklik hosil qiladi. Masalan: *goh...*, *goh* voqea-hodisalarning galma-gal ro‘y berishini<sup>42</sup> (*Natasha hayron bo‘lib qolgan, goh Komissarga, goh Lolaga mo‘ltirab qarar edi.* O‘.Hoshimov), *ba‘zan* ayirish (*To‘lqinlar uni goh erkalab yelkasiga ko‘taradi. Goh bo‘tana girdobiga uloqtiradi.* O‘.Hoshimov) ma‘nolarini ifodalaydi va bunday paytlarda o‘z guruhidagi elementlar bilan substansial qiymatdoshik munosabatga kirisha oladi. Ammo bu almashinishlar hamma vaqt ham muvaffaqiyatli chiqavermasligi mumkin: *Archalarning tinch shoxlarida / Lipillaydi goh nur, goh kecha* (U.Azim) kabi holatlarda *goh...*, *goh* ning o‘rnini *bir...*, *bir* bosa olmaydi, uslubiy g‘alizlik sodir bo‘ladi.

She‘riy matnlarda vazn bilan bog‘liq ravishda *goh-goh* ning *gohi...*, *gohi*, *goho...*, *goho* variantlari ham qo‘llanadi: *Kelursan o‘zing deb bir kun insofa - // Gohi Toshkent, gohi Urgutdadurman* (M.Yusuf); *Hayotda mo‘jiza bo‘ladi goho // Gadolik shohlikka do‘nadi goho* (Sh.Qurbon) kabi. Ko‘p hollarda *goh*, *gohi*, *goho* variantlarining takrorlanuvchi ikkinchi qismi uslubiy-pragmatik talabga mos holda *gohida* shaklida keladi: *O‘tdi yoshlik zavq bilan, gohi to‘polon bilan // Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan* (A.Oripov).

*dam...*, *dam* so‘zi mustaqil kelganda vaqt ma‘nosini bildiradi: *Tumshug‘ini cho‘zib osmonga, / G‘azab bilan uvladi bir dam* (U.Azim). Takror qo‘llanganda

<sup>42</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. -Б.510.

esa grammatizatsiyalashadi va bog‘lovchi vazifasini bajaradi: *Faxriddin yo‘lda ketayotib negadir dam kular, dam burnini artib yo‘talar edi* (A.Qahhor). Bu vosita o‘z uyasidagi boshqa birliklar bilan substansial qiymatdoshik munosabatga kirishadi, lekin o‘zaro almashtirishni hamma vaqt ham muvaffaqiyatli deb bo‘lmaydi: *Do‘stlar davrasida goh sharob ichib, / Goho og‘u ichib o‘ltiraman jim* (U.Azim) - *Do‘stlar davrasida dam sharob ichib, / Dam og‘u ichib o‘ltiraman jim*. Bu holat, birinchidan, *goh...*, *goh* vositasining kitobiyliigi hamda qo‘llanish ko‘lamining kengligi bilan, ikkinchidan esa, *goh* va *dam* elementlaridagi semantik farqlar – biridagi umumiylik, ikkinchisidagi bir lahzalik bo‘yog‘i bilan izohlanadi. Ana shunga ko‘ra ular ifodalaydigan pragmatik-stilistik ma’no ham ixtisoslashadi. Yana bir misol: *Oyparcha, Manzura yugurib kelib, Tursunoyning yonida turishdi. Dam unga, dam musobaqadoshga, dam ariqqa qarardilar* (Zulfiya) matnida vositalar bemalol o‘rin almashina olsa-da, ma’lum stilistik-pragmatik farqlanish seziladi. Bu farq qarashdagi tezlikni ko‘rsatish darajasida namoyon bo‘ladi. *Dam...*, *dam* vositasi ajratgan holatdagi tezlik (qizlarning Tursunoyga, uning musobaqadoshiga va ariqqa) *goh...*, *goh* ifodalaydigandan ancha ustundir – harakat *dam...*, *dam* bilan boshqarilganda qizlar uch obyektga ham tezlikda, yalt-yalt-yalt qarab chiqishgani anglashiladi. *goh...*, *goh* bilan ifodalaganda bu qarash darajasi sekinlashadi. *Bir...*, *bir* ajratgan matnda esa qarashlar yanada sekinlashib, shunchaki bemaqsad ko‘z yugurtirishga aylandi. Bu pragmatik-stilistik tagma’nalar vositalar mushtarakligi asosida ularda shakllangan hosilaviy ma’nolaridir.

Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni sabab munosabatiga ko‘ra biriktiruvchi vositalar *chunki* va *shuning uchun* vositalaridir.

*Chunki* vositasi bosh gap bilan ergash gapning sababiy bog‘lanishini ko‘rsatib, *negaki*, *sabab shuki*, *zeroki so‘zlari bilan qiymatdoshdir*: *Negaki, shahzoda Movarounnahrni zabt etganiga to‘rt oydan oshsa ham na el tinchidi, na uning ko‘ngli!* (O.Yoqubov); –*Sayid Abbosni hibsga olibsen, deb eshitdim, nechun?–deb so‘radi. Sababi... bandai ojiz sha’niga har xil fisqi fasod so‘zlar tarqatibdur...* (O.Yoqubov).



Ushbu mikromatnlar *chunki* va unga substansial qiymatdosh bo‘lgan birliklarning vositalik imkoniyati ikki sodda gap o‘rtasida emas, balki undan keng doirada bo‘lishi mumkinligini, hatto so‘zlovchilarning nutqini ham o‘zaro vosita, birining gapdagi jumboqqa ikkinchi gapda izoh berilishi mumkinligi ko‘rsatadi.

Bu vositaning ko‘pincha ikkinchi mustaqil gap boshida kelayotganligining urg‘u bilan bog‘liq bo‘lgan pragmatik afzalliklari bor: *–Nega? – Bonuning ovozidagi taraddud, chehrasidagi tortinchoq muloyimlik sovuq bir qat‘iyat bilan almashdi. – Negakim, bu sirni aytsam dilingiz og‘riydi, bonu... (O.Yoqubov).*

*Chunki* ning til tarixida chun/chu variantlari bo‘lgan. Adabiy tilimizdan chiqib ketgan ushbu shakllarga ba‘zan badiiy asarlardagina murojaat qilinadi: *O‘n sakkiz ming olam oshubi / Padar boshindadir, / Ne ajab, chun o‘g‘li oning / O‘n sakkiz yoshindadir (E.Vohidov).*<sup>43</sup>

*Shuning uchun* birligi chunki guruhidagi vositalarga substansial qiymatdosh bo‘la oladi. Ammo ular ma‘no nozikliklariga ko‘ra o‘zaro farqlanadi – birinchisida ta‘kid bo‘yog‘i kuchli bo‘ladi: – Men ertadan keyin Bog‘donga ketaman, Rahimjon, shuning uchun bugun Sharifni, Shafrinni va boshqa yor-do‘stlarni ko‘rishim kerak (A.Qahhor). Lekin *shu bois, shu sababli, shu vajdan, shunga ko‘ra* kabilardan pragmatik farqlarga ega. Bu vositalar kitobiy xarakterda bo‘lsa, *shuning uchun* betaraf va bu xususiyati bilan chunki bilan bir maqomda turadi. Uning *shuning uchun ham, mana shuning uchun, mana shuning uchun ham, ana shuning uchun ham* singari variantlari matnda ta‘kidni turli darajada kuchaytiruvchi vositalar sifatida voqelanadi.

Bog‘lovchilar tahlil asosida biz yana shunday xulosaga kela olamizki, bu tizimda o‘zgarishlar tilimizning boshqa tizimchalaridan ko‘ra ancha yorqin va keskin va bu turkiy tillar sintaksisida qo‘shma gaplarning - ishimizning oldingi boblarida qisman ko‘rib o‘tilgan - o‘ziga xos taraqqiyot xususiyati bilan uzviy bog‘langan va kuzatishlarimiz bu tizimcha faol taraqqiyotda ekanligidan dalolat beradi. Bu tizimcha tarkibidan mustaqil so‘zlarning grammatizatsiyasi asosida

<sup>43</sup>*Батафсил маълумот олиш учун қаранг:* Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида эргаштирувчи боғловчи гапларнинг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2008. -25 б.

yangi-yangi birliklarning o‘rin olishi buning yorqin dalilidir. Shuning uchun ma’lum davrdan keyin tilimizda va nutqimizda vosita vositalarning moddiy ko‘rinish va turlarini, funksional-stilistik qiymati va pragmatik ahamiyatini o‘rganishga qaytish yangi-yangi ilmiy natijalarni, o‘tgan qisqa davr ichida tilimizda bu sohada yuz bergan o‘zgarishlarni aniq tavsiflash imkoniyatini beradi. Darhaqiqat, vositalar tizimi tilimizda tez rivojlanib borayotgan bo‘g‘indir. O‘zbek tilida vositalarning mushtarakligi va farqlanishi masalasining tadqiqi o‘zbek tilida bu jarayon grammatik kategoriya va shakllarda sintaktik va semantik tomonlarning dialektik birligi umumiy taraqqiyot qonuni - sintaktik umumiylik (o‘xshashlik)ning semantik farqlanish, semantik umumiylikning (o‘xshashlikning) sintaktik farqlanishga intilishi va ixtisoslashishi asosida bormoqda. Vositalar tizimida semantik tomon nafaqat o‘ta umumiy tabiatli (chunonchi sabab, maqsad, zamon, makon, shart, munosabat, uzluksiz birin-ketinlik, uzilgan birin-ketinlik, oniylik, uqilgan-uqilmaganlik, kutilgan-kutilmaganlik...v.h.) ma’lum bir informativ ma’noni, balki uslubiy, sohaviy va pragmatik qiymatni ham o‘z ichiga oladi. Tilimizda mushtaraklik asosida vosita vositalarning ixtisoslashishi ham, asosan, shu semantik tomon doirasida yuz bermoqda.

### **3.3. Yuklamalar umumiy grammatik ma’nosining nutqiy voqelanishi**

**Yuklamalar nutqiy qo‘llanishining umumiy masalalari.** Yordamchi so‘zlarning umumiy funksional belgisi “bog‘lash”dir. Shu belgi asosida ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalar so‘z va gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog‘lovchi va ko‘makchilar uchun o‘zgarmas, barqaror sanaladi. Yuklamalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular so‘z yoki gaplarga so‘roq, ta’kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o‘xshatish kabi qo‘shimcha ma’nolarni beradi va funksional “bog‘lash” belgisiga nisbatan beqaror, o‘zgaruvchan sanaladi, ya’ni “bog‘lash” belgisi bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Chunonchi, *na-na* yordamchisi teng bog‘lovchilarning bir turi sifatida

inkor bog‘lovchisi sanalib kelgan. G‘.Abdurahmonov esa uni inkor bog‘lovchisi deb atash bilan birga, yuklamalik xususiyatiga ham egaligini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham, bu yordamchi ham bog‘lovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajaradi. Bog‘lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo‘lak (komponent)larga inkor ma‘nosini berib, ularni bog‘laydi: *Na so‘zlarida ma’no bor, na ishlarida hayo.* (Oybek). Bu yordamchi so‘z yuklama vazifasini bajarib, mazmunidan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor ma‘nosini ko‘rsatadi: *Raisning erkato y o‘g‘li na o‘qiydi, na biror joyda ishlaydi.*<sup>44</sup>

*Go‘yo* so‘zi o‘xshatish yoki chog‘ishtirish mazmunli sodda va qo‘shma gaplar tarkibida ishtirok etadi. Sodda gaplardagi vazifasiga ko‘ra ko‘proq yuklamalarga yaqin turadi: *Tursunoy go‘yo qalbi bilan ashulaga jo‘r bo‘lar edi.* (A.Muxtor.) *Kampirning yuzida go‘yo kulgiga o‘xshagan bir narsa aks etdi.* (A.Qahhor.) *Go‘yo* yordamchisi qo‘shma gaplarda sodda gap qismlarini biriktiruvchi grammatik vositalarning biri sifatida xizmat qiladi, ya‘ni qo‘shma gapdagi vazifasiga ko‘ra sodda gapdagi vazifasidan farqli o‘laroq, u faqat yuklamagina emas, balki bog‘lovchi-yuklama sanaladi: *Ertaga nikoh bo‘ladi, go‘yo men uning xotini.* (Oybek.) *Shunday baqirdiki, go‘yo butun xona larzaga kelgandek bo‘ldi.* (A.Qahhor.) *Aytdimi, qiladi, Qo‘ydi-da, chiqdi* gaplarida ham – *mi, -da* qo‘shimchasimon yuklamalarning bog‘lovchilik xususiyatini kuzatish mumkin. Demak, yuklamalarning qo‘shma gap tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘lash vazifasi keng uchraydigan hodisa ekan va bu tilshunosligimizda ma‘lum darajada o‘rganilgan.<sup>45</sup>

Ko‘pgina yordamchi so‘zlarning qo‘shimchasimon ko‘rinishlari ham mavjud, bu yuklamalarga ham xos: *ham, -am /-yam; uchun, -chun; -u, -yu; bilan, -ila, -la* shular jumlasidandir. Yuklamalar shakliy jihatdan uch xil ko‘rinishga ega:

1. Qo‘shimchasimon yuklamalar: *-mi, -chi, -a, -ya....*
2. Sof yuklamalar: *xuddi, faqat, axir....*

<sup>44</sup>Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. - B.310.

<sup>45</sup>Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. - B.311.

3. Nisbiy yuklamalar: *yolg'iz, ba'zan, tanho, bir....*

Yuklamalar vazifaviy jihatdan quyidagi ma'no turlariga bo'linadi:

So'roq yuklamalari: *-mi, -chi, -a, -ya, nahotki*. Bu yuklamalar turli so'z turkumlariga qo'shib, so'roq ma'nosini bildiradi. Ba'zan so'roq ma'nosidan tashqari taajjublanish, hayratlanish ma'nolarini ham ifodalaydi.

*-mi* affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi, *-chi, -a, -ya* yuklamalari esa o'zidan oldingi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: 1. *Kiyganingiz ipakmidi, kimxobmidi, Sevganingiz bizlardan ham ortiqmidi? 2. O'pang-chi? Sen-chi? Men-a? Meni-ya? 2. Nahotki shu gaplarga ishongan bo'lsangiz.*

Ayirish-chegaralash yuklamalari: *faqat, faqatgina, -gina (-kina,- qina)*.

Bu yuklamalar ayrim narsa va hodisalarni boshqalardan ajratish, harakatni chegaralash uchun qo'llaniladi. *-gina* affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi: *To'yga Sheraligina kelmadi, xolos. O'ktam indamadi, faqat yuragida to'lqinlangan mehr bilan onasiga tikildi. Faqat* yuklamasining o'rnida *yolg'iz* so'zini ham qo'llash mumkin. Sifat so'z turkumiga oid bu so'z nisbiy yuklama hisoblanadi: *Sobir, yolg'iz senga suyandim (Sobir, faqat senga suyandim)*.

Ta'kid yuklamalari: *-ku, -da, -u, -yu*. Gapda ifodalangan biror voqeani ta'kidlash uchun qo'llaniladi: *Sobir-ku keldi, Mahmud kelmadi-da!*

Kuchaytiruv yuklamalari: *axir, hatto, hattoki, -oq (-yoq)*.

*-oq, (-yoq)* affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi. Harakatning birin-ketin tezlik bilan davom qilishini, boshlanish paytini, ta'kidlashni ko'rsatadi: *Gullarni ko'riboq ko'ngli yorishdi. Axir, hatto, hattoki* yuklamalari ham fikrni kuchli ta'kidlash, avvalgi voqeani eslatishni ifodalaydi: *Axir do'stimsan-ku!*

O'xshatish-qiyoslash yuklamalari: *xuddi, naq, go'yo, go'yoki*. *Bahorda bu bog'lar go'yoki kelindek yasanadi. (Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to'ldirgan, go'yo kechaning o'zi kuylaydi kabi gaplarda yuklama-bog'lovchi vazifasini bajaradi.)*

Inkor yuklamasi: *na*. Takror holda ishlatilib inkor ma'nosini ifodalaydi:

*Na ko'kning fonari o'chmasdan,*

*Na yulduz sayr etib ko'chmasdan. (U.)*

Yordamchi so'zlar – ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar tilimizni, uning cheksiz imkoniyatlarini yana ham boyroq, ifodalarimizni yana ham aniqroq va go'zalroq qilishning vositalaridandir.

### **Yuklamalar substansial qiymatining uslubiy-pragmatik xoslanishi.**

Yuklamalar boshqa yordamchi so'zlarga nisbatan pragmatik qiymatining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Xususan, unda shaxsiy munosabatning nutqiy vaziyatdan kedib chiqqan holda ifodalanishi pragmatik xoslanishning asosini tashkil qiladi. *Masalan, -dir* yuklamasi qo'yidagi lisoniy vositalarga qo'shilganda gumon ma'nosini voqelantiradi va u so'zlashuv, badiiy uslubga xosligi, o'z lisoniy imkoniyatlarini voqelantirishi uchun ana shunday pragmatik qulay vaziyat bo'lishini taqozo qiladi. Bunda uslub turi, u aks ettirgan nutqiy vaziyat pragmatik muhitni tashkil qiladi. Shu bilan birga, so'zlovchining o'zi ifodalayotgan voqelikka munosabati ham ushbu pragmatik vaziyatga hamkorlik qiladi. Ulardan ayrimlarini ko'rib o'tamiz:

1) so'roq olmoshlariga: *kimdir, nimadir, qaysidir, qandaydir, qachondir, negadir, qayeridir, qayoqqadir kabi;*

2) kesim vazifasida kelgan ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh shakllariga: - *Bilmadim, qizidir (N.Aminov). E, u qarib ketgandir – o'shandayoq sendan to'rt-besh yosh katta edi (E.A'zam);*

3) bor, yo'q modal so'zlariga: - *Kecha Shahnozaning oldiga borib keldik. Isitmasi qirqdan tushmayapti. Sizning ham qizingiz bordir, axir! (O'.Hoshimov);*

4) emas to'liqsiz fe'liga: *Fikr-qarashlari ham o'shanga moslanib qolgani uchun faqatgina o'zi aybdor emasdir, axir! (E.A'zam);*

5) -dir gumon yuklamali so'roq olmoshlari, otlar ko'makchilar bilan yoki har xil grammatik (son, daraja, egalik, kelishik v.b.) shakllarida kelishi mumkin. Bunda ko'makchilar va grammatik ko'rsatkichlari -dir yuklamasidan oldin keladi. Chunonchi:

a) bilan ko‘makchili bo‘lak: *Qomati nimasi bilandir tarvuzga o‘xshab ketadigan militsioner paydo bo‘ldi (O‘.Hoshimov);*

b) uchun ko‘makchili bo‘lak: *He uchundir lovullar ko‘zi, / Titroq ichra qoladi o‘g‘lon (U.Azim);*

v) qaratqich kelishigi -ning bilan shakllangan bo‘lak: *... Shahnoza kimningdir muzdek kafti peshonasiga tekkanini sezib seskanib ko‘zini ochdi (O‘.Hoshimov);*

g) tushum kelishigi -ni bilan shakllangan bo‘lakka: *Nimanidir anglagandek bo‘ldim (O‘.Hoshimov);*

d) chiqish kelishigi -dan bilan shakllangan bo‘lak: *Bu makondagi yagona mehribonlari Tolya Vasyuk qay go‘rdandir kavlashtirgan eski bir asbobni bilagiga bog‘lab o‘lchab ko‘rilgan edi, qon bosimi o‘lar darajaga tushib ketibdi (E.A‘zam);*

ye) o‘rin-payt kelishigi -da bilan shakllangan bo‘lak: *Shiftning qayeridir «qirs» etdi, qayerdadir kaltakesak chirqilladi, Turobjonning qulog‘i jing‘illadi (A.Qahhor);*

j) jo‘nalish kelishigi –ga bilan shakllangan bo‘lak: *Aftidan, uning bu kabi kori badi kimgadir kerak (E.A‘zam);*

z) egalik qo‘shimchalari bilan shakllangan bo‘lak: *Nimasidir hindiylarga tortib ketadigan, sochlari oq aralash qaddiraso bir kishi ko‘zoynagini yiltillatib tepasida jilmayib turibdi (E.A‘zam);*

-dir yuklamasi gumon ma’nosini shakllantirishda alla- morfemasi bilan yaqin pragmatik yaqinlikni yuzaga keltiradi. Masalan:

1) kimdir – allakim: - *Tush! - dedi kimdir baqirib. - Tush bu yoqqa! (O‘.Hoshimov) - Tush! - dedi allakim baqirib;*

2) qandaydir – allaqanday: *Bu oqsoqol spekulyant emas, - dedi qandaydir asabiy ohangda (O‘.Hoshimov) - Bu oqsoqol spekulyant emas, - dedi allaqanday asabiy ohangda;*

3) nimasinidir – allanimasini: *Qiziq, nimasinidir oyimga o‘xshatdim... (O‘.Hoshimov) - Qiziq, allanimasini oyimga o‘xshatdim...*

4) nechundir – allanechun: *Nazira nechundir qizarib, yelka qisdi (O'.Hoshimov) - Nazira allanechun qizarib, yelka qisdi;*

5) nimasi bilandir - allanimasi bilan: *“Chavandoz” nimasi bilandir Don-Kixotga o‘xshab ketadi (O'.Hoshimov) - “Chavandoz” allanimasi bilan Don-Kixotga o‘xshab ketadi;*

6) nimalardir – allanimalar: *Chol nimalardir deb hazil qiladi, u bo‘lsa qiqir-qiqir kuladi. (E.A‘zam) - Chol allanimalar deb hazil qiladi.*

7) nimasidir – allanimasi: *Ko‘zga issiqdek, rostdan ham nimasidir tanish (E.A‘zam) - rostdan ham allanimasi tanish;*

8) nechukdir - allanechuk: *Uning xurragi ham nechukdir adabiyroq edi (A.Qahhor) - Uning xurragi ham allanechuk adabiyroq edi;*

9) qaysidir – allaqaysi: *Qaysidir bayram arafasida Farhod Ramazon restoranda o‘tadigan bir anjumanga taklif qilinadi (E.A‘zam) - Allaqaysi bayram arafasida Farhod Ramazon restoranda o‘tadigan bir anjumanga taklif qilinadi;*

10) qayoqqadir – allaqayoqqa: – *Ko‘rmadim, – deb qo‘ydi Farhod o‘ychanlik bilan, – qayoqqadir ketgan ekan (E.A‘zam) – allaqayoqqa ketgan ekan;*

11) qayoqdandir - qayoqdandir: *Qayoqdandir oyoq ostidan hamshaharu hamkasblari Igor Semashenkov chiqib qoldi (E.A‘zam) - Allaqayoqdan oyoq ostidan hamshaharu hamkasblari Igor Semashenkov chiqib qoldi;*

12) qachonlardir – allaqachonlar: *Fransuz avangardlari qachonlardir o‘tib ketgan (T.Murod) - Fransuz avangardlari allaqachonlar o‘tib ketgan;*

13) qayerlargadir – allaqayerlarga: *Xayollari qayerlargadir ketdi... (T.Murod) - Xayollari allaqayerlarga ketdi...*

14) nenidir – allaneni: *Bag‘ringga olgin! / Lablaring nenidir shivirlar shodon (U.Azim) - Lablaring allaneni shivirlar shodon.*

Bulardan tashqari, -dir yuklamasi jumla tarkibida bir so‘zini ayrim so‘roq olmoshlari bilan birgalikda keltirish orqali yasalgan gumon ma’noli qurilmalar bilan ham mushtaraklik hosil qiladi: Masalan:

1) bir nima – nimadir: *Tuproqqa dum tushib yotgan bolalar bir nimalarni gaplashib qiyqirib kulishar, har kulganida zavqlanib, tovonini urishtirib qo‘yardi*

(O'.Hoshimov) - *Tuproqqa dum tushib yotgan bolalar nimalarnidir gaplashib qiyqirib kulishar....;*

2) bir qancha – qanchadir: *Lekin uning bir qancha shartlari bo'lib, bularning eng birinchisi Muhayyoga sovchi yuborilishi ekan (A.Qahhor) - Lekin uning qanchadir shartlari bo'lib, bularning eng birinchisi Muhayyoga sovchi yuborilishi ekan;*

3) bir nechta- nechtadir: *Hayal o'tmay bir nechta chiroq paydo bo'ldi (A.Qahhor) - Hayal o'tmay nechtadir chiroq paydo bo'ldi.*

Umuman, *-dir* yuklamasi gumon ma'nosini ifodalashda yaxlitlik hosil qiladigan alla- unsuri bilan hosil qilingan sintetik, [bir + so'roq olmoshi = ....] qolipining gumon ma'noli analitik hosilalari orasida farq shundaki, alla- tarkibli substansial birliklar pragmatik jihatdan ko'pincha so'zlashuv nutqiga, [bir + so'roq olmoshi = ....] qolipli substansial qolip hosilalari esa badiiy va ilmiy pragmatik vaziyatiga xosligi bilan xarakterlanadi.

Mohiyatan – *dir* kesimlik qo'shimchasi bilan shaklan omonimlik, mazmunan antonimlik hosil qiluvchi –*dir* yuklamasi esa pragmatik jihatdan betarafdir. Mana shunday bir-biriga zid munosabat bu qo'shimchanning nutqda pragmatik xoslanishini keltirib chiqaradi va pragmatik umumiylikka ega bo'lgan bu shakllarning qo'llanishiga keng yo'l ochadi. Shuning uchun bu yuklama, xususan, kesim mavqeida nisbatan kam ko'llaniladi. Bu uning lisoniy imkoniyatlari bilan bog'liq ravishda yuz beradi.

Demak, kim, nima, qaysi, qanday, qachon, nega, qayeri, qayoqqa kabi so'roq olmoshlari, kesim vazifasida kelgan ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh shakllari, bor, yo'q modal so'zlari, emas to'liqsiz fe'li kabilar –*dir* yuklamasining leksik hamkorlari sanaladi. Boshqacha aytganda, ushbu yuklamaning lisoniy imkoniyatlarini namoyon qilishda mazkur leksik hodisalar voqelantiruvchi asosiy lisoniy “kuch” hisoblanadi, lekin so'zlashuv, badiiy va ilmiy pragmatik vaziyatlari nolisoniy “quvvatlovchi” sifatida yuzaga chiqadi.

O'zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy adabiyotlarda na... na yordamchisi dastlab inkor bog'lovchisi sifatida izohlandi va ancha munozaralarga sabab bo'ldi.



Biroq keyingi yillaridagi darsliklarda bu yordamchi inkor yuklamasi deb ko'rsatila boshlandi. Bu bahs-munozarali fikrlarga R.Rasulov tadqiqoti bilan bir hisobda chek qo'yildi. Tadqiqotchi bu yordamchi birlikning uyushgan bo'laklar va qo'shma gap tarkibida kelishini atroflicha tahlil etib, bunday qo'llanilishlarda bog'lash vazifasini maxsus bog'lovchi vositalar amalga oshirishi, na... na yordamchisi esa ta'kidli inkorni ifodalashga xizmat qilishini yorqin misollarda ko'rsatdi, uning ham... ham va boshqa yordamchi vositalar bilan paradigmatik aloqalarini tavsifladi.<sup>46</sup> Keyinchalik bu fikrni akademik A.Hojiyev ham ma'qulladi.<sup>47</sup> Nazarimizda, bu tadqiqotlardan keyin na... na yordamchisining yuklamaligini inkor qilishga asos qolmadi. Faqat shuni ta'kidlash kerakki, bu yordamchi so'zning birlamchi substansial vazifasi yuklamalik bo'lsa, ikkilamchi vazifasi bog'lashga xizmat qilishidir.

Inkor ma'nosini ifodalashiga ko'ra na..., na yuklamasi ayrim grammatik vositalar bilan ma'nodoshlikni yuzaga keltiradi. Masalan: *yo'q* so'zi bilan: *Bularda na kasbiga mehr bor, na e'tiqod!* (O'.Hoshimov); *ham ...ham...* *yo'q* bilan. Chunonchi: 1. *Na kechasi tinchlik bor, na kunduzi.* (O'.Hoshimov). 2. *Kechasi ham, tinchlik yo'q, kunduzi ham.*

Mana shu ikki gapning o'zi bu vositaning tabiatan inkor yuklamasi ekanligini namoyon etadi – 1-gapda inkor ikkinchi gapdagidan ko'ra kuchli, ta'kidli, «yuklamali», lekin: 3. *Na kechasi tinchlik bor.* 4. *Kechasi ham, tinchlik yo'q*kabi gaplarni o'zaro qiyoslasak boshqa bir hodisaning guvohi bo'lamiz. 4-gap presuppozitiv ishora asosida pragmatik jihatdan bu gapdan oldin kunduzlari tinchlik bo'lmaganligi haqida bahs borganligiga ishora qiladi, mustaqil fikr anglata oladi. 3-gap esa mohiyatan tugallanmagan. Ham juft, ham yakka qo'llanila oladigan *ham* yuklamasidan farqli ravishda *na...na...* faqat juft qo'llaniladi. *na... na...*inkor yuklamasi kesimning bo'lishsiz shakli bilan ham mushtaraklik bo'lganda shu bandda keltirilgan 1- va 2-gaplar orasidagi farq voqelanadi.

<sup>46</sup>Расулов Р. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзларнинг семантик-грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1983. - Б.79.

<sup>47</sup>Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек адабий тили боғловчилари ҳақида мулоҳазалар...-Б.55.

Yuklamali inkor bo‘lishsiz kesim shaklli inkordan ko‘ra kuchli, ta’sirli bo‘ladi, yuklama o‘z yuklamaligini ko‘rsatadi: *...so‘ngra murod hosil bo‘lmay – na biror ma’nili gap eshitib, na bir narsaga erishib, chayqala-chayqala shaharga qaytgan.*(E.A’zam) *...so‘ngra murod hosil bo‘lmay – biror ma’nili gap eshitmay, hech narsaga erishmay, chayqala-chayqala shaharga qaytgan kabi.*

She’riy diskursda ba’zan emotsional ta’sirchanlikni kuchaytirish uchun *na.., na ga -da* yuklamasi qabatlantirilgan holda qo‘llaniladi. Masalan: *Na-da do‘zax olovi yamlar, / Na-da eshik ochadi behisht* (U.Azim). Bunday qo‘llanilishda inkor ma’nosi yana ham kuchayadi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, yuklamali inkor oddiy bo‘lishsiz shaklli inkordan ko‘ra ancha kuchli va ta’kidlidir.

Na yuklamasining lisoniy imkoniyatini voqelantiruvchi lisoniy vosita morfologik omil, ya’ni bo‘lishlilik/tasdiq shaklidir. Zero, na shakli ishtirok etgan qurilma, albatta, bo‘lishli shaklda kelishi shart. Lekin ba’zan nutqda bo‘lishsiz shakl bilan keltirilib, bo‘lishsizlikni kuchaytirish uchun qo‘llanilishi ham uchrab turadi:

*Na xotin, na farzand ko‘rmagan,*

*Kimsasiz, bechora bir yigit* (Uyg‘un)

Bu holat lisoniy ko‘makchi omillarning ba’zan susayishini ko‘rsatadi.

Badiiy va so‘zlashuv vaziyati ushbu yuklamaning lisoniy imkoniyatini voqelantiruvchi pragmatik omil hisoblanadi.

Nazarimizda, pragmatik omil na yuklamasining lisoniy imkoniyatini voqelantirishda yetakchi omil, lisoniy vositalar esa ko‘makchi sifatida namoyon bo‘ladi.

### III bob bo'yicha xulosalar

O'zbek tilida ismni ism bilan bog'lash (qaratqich kelishik va egalik shakllari), fe'lni fe'l bilan bog'lash (ravishdosh shakllari), fe'lni ism bilan bog'lash (sifatdosh va harakat nomlari shakllari), nomustaqil kesimni mustaqil kesim bilan bog'lash (nomustaqil kesimlik shakllari), shuningdek, o'zbekcha yuklamalarda ontologik ravishda bog'lash ikkilamchi vazifasi mavjudligi sababli bu tillarda bog'lovchilarga tizimiy (sistem-struktur) ehtiyoj yo'q va turkiy tillardagi aksariyat bog'lovchilar olinmalardir. Shuning uchun bog'lovchilar hamisha oraliqda - ko'makchi va yuklama ziddiyati orasida turadi. Bog'lovchilarning yozma nutqimizda faollashuvi o'zbek tilining qo'llanilish doirasi va sohalarining jiddiy kengayishi bilan uzviy bog'liq. Ma'lum bir muddatdan so'ng tilimizdagi bog'lovchilar o'zida alohida pragmatik ma'noviy qiymat hosil qilishi ehtimoldan xoli emas.

Muayyan nutqiy voqelanishlarda ham bu tomonlar dialektik birlikda voqelanadi – bunda hech qachon ularning barchasi bir xil darajada bo'lmaydi, lekin ma'lum bir tomonning kuchayishi boshqa tomonlarning zaiflashishi hisobida sodir bo'ladi. Ayrim bir tomonning to'la mo'tadillashishi birlikning bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tishiga olib keladi, uning yo'qolishi esa so'zni bir turkumdan ikkinchi turkumga ko'chiradi.

Har bir so'z turkumi uchun umumiy bo'lgan sintaktik va semantik tomonidagi o'xshashlik asosida nutqiy muloqotda hosil bo'ladigan rang-barang mushtarakliklarda o'zaro almashinuvchi (birliklar) orasida pragmatik ma'no asosida ixtisoslashishga intilish juda kuchli. Dialektikaning shakl va mazmun mutanosibligining lisoniy tizimda voqelanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan bunday intilish til uchun umumiy taraqqiyot qonunlaridan biri bo'lib, uning ta'siri, xususan, milliy istiqloldan keyin o'zbek tili davlat tili maqomini olgach, uning qo'llanilish doirasining keskin kengayishi, unda xilma-xil uslub va muloqot turlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan sezilarli bo'ldi. Shuning uchun rasmiy va ilmiy uslubning oralig'ida turgan, mohiyatan milliy istiqloldan keyin shakllangan davlatchilik, qonunchilik sohalari pragmatikasida yordamchi

soʻzlarning (ayniqsa, koʻmakchi va bogʻlovchilarning) va yordamchi soʻzli qurilmalarning koʻplab ixtisoslashishini koʻramiz - soha yangi va oʻziga mos vositalarini kundan-kunga oshirib bormoqda. Shu asosda mushtaraklik munosabatlarida turgan yordamchi soʻzlar orasida pragmatik qiymat (jumladan, uslubiy xoslanish) asosida farqlanish yaqqol sezilib turgan va taraqqiyotga zamin boʻlayotgan hodisalardan biridir.

## UMUMIY XULOSA

1. Globallashuv asrida axborot texnologiyalarining ommalashganligi, ilmiy tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarblashganligi tufayli tilshunoslik ham amaliy vazifalariga – nutq samaradorligi tadqiqiga e'tiborni kuchaytirdi. Natijada tilshunoslikning jamiyat va inson nutqi bevosita bog'liq holda o'rganuvchi ijtimoiy tilshunoslik – sotsiolingvistika, til vakillari nutqini milliy etnik xususiyatlar tadrijida yorituvchi etnolingvistika, til birliklari va muayyan shaxs nutqi munosabatlarini aniqlovchi pragmatika, nutqning maqsadi, uning nutqiy vaziyat va aloqa, anglash va bilish jarayonidagi o'rnini tavsiflovchi psixolingvistika kabi yangi tarmoqlari vujudga keldi. Bu yo'nalishlarning mohiyati shundaki, endilikda nutqqa insoniy faoliyat – fikr almashtirish va o'zgalarga ta'sir ko'rsatish, bunyod qilishning asosiy turlaridan biri sifatida yondashilib, uning ixchamligi, samaradorligi va ta'sirchanligi, mantiqiyliqi tadqiqi birinchi o'ringa qo'yilmoqda. Shu asosda jahon tilshunosligida nutqning faoliyat sifatidagi qiymati hamda uning to'g'ri va ko'chma ma'nolarini ajratish, ochiq ifodalanmagan, lekin ifodalanishi so'zlovchining maqsadi bo'lgan ma'lumot – axborotni aniqlash usullari ishlab chiqildi va u tezda ommalashib ulgurdi. Bu yangi fanlarning ayrimlari respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotganligi quvonarli, albatta.

2. Nutqiy muloqot o'nlab – milliy, etnografik, ijtimoiy, falsafiy-madaniy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat harakatli tizimdir. Inson nutqida bu omillar u yoki bu tarzda mujassamlashadi, bir butun va yaxlit hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham nutqda subyektivlik va obyektivlikni bir-biridan ajratgan holda tadqiq qilish mumkin emas. Demak, nutqiy faoliyat unga yondosh va insonga xos ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy holatlar bilan bog'liqlikda tadqiq etilgandagina nutqiy muloqotning mohiyati ochiladi va individual hodisa sifatidagi nutqqa obyektiv baho beriladi. Bu esa, lisoning nutqiy voqelanishini unga hamrohlik qiluvchi nutqiy paradigmalar (fiziologik, ruhiy,

professional, axloqiy, estetik, madaniy, nutq vaziyati – nutq sharoiti, nutq uslubi) qurshovida tekshirish natijasida lisonni modifikatsiya qiluvchi vositalarning ta'siri va rolini baholash, nutqning ijtimoiy qiymatiga va ta'sirchanlik – bunyodkorlik qudratiga ilmiy tavsif berilishning nechog'lik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

3. O'zbek tilida so'zlarni bog'lovchi vositalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, grammatik ma'no ifodalash, so'zlarni o'zaro teng yoki tobe holda bog'lash, nutqqa kiritish, gap bo'laklari mavqeini ta'minlash, tobe-hokimlik munosabatini saqlab turish, til uslublari uchun imkoniyat yaratish, nutqiy tejamkorlikni ta'minlash, tilning ontolik xususiyatlarini ko'rsatishda katta ahamiyatga ega. So'zlarni bog'lovchilar sintaktik vositalar hisoblanib, ular so'z birikmasi va gap tuzish jarayonida tayanch vazifa bajaradi. Kelishik shakllari, egalik shakllari, ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalar (nokategorial shakllar) va boshqalar so'zlarni bog'lovchi vositalar hisoblanib, nutqda o'rni bilan vazifadosh til birliklari sifatida namoyon bo'ladi.

4. O'zbek tilida so'zlarni bog'lovchi vositalar turli lisoniy sathlarga tegishli bo'lib, so'zlarni bog'lash vazifasi yuzasidan o'z lisoniy sathida ichida ichki, o'z lisoniy sathidan tashqarida (so'zlarni bog'lovchi vositalar bilan birgalikda) tashqi paradigmalarda gradual munosabatda ishtirok etadi. Bu esa tilning yaxlit tizim ekani, undagi birliklar esa doimo gradual munosabatda yashashini ko'rsatadi.

5. Tilning muhim aloqa vositasi ekanligi keng ma'noga ega. Jamiyat a'zolari o'zlari uchun doimo tilga ehtiyoj sezishadi. Tilsiz jamiyat a'zolari hayotini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Biroq yozuv, imo-ishora kabi bir necha aloqa vositalari bo'lsa-da, ular tiling vazifasini to'liq bajara olmaydi. Shunday ekan, til jamiyatda aloqa vositasini bajarishi jihatidan ham ahamiyat kasb etadi. So'zlarni bog'lovchi vositalarlarning so'z birikmasi va gap tuzish jarayonida aloqa vazifasini bajarishi yuqoridagi fikrga qiyoslanganda ular orasida aloqadorlik mavjudligi ravshanlashadi. Zeroki, so'zlarni bog'lovchi vositalarlarsiz so'zlar tizimining fikr ifodalashini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Ma'lum bo'ladiki, so'zlarni bog'lovchi vositalar tilda o'ta muhim ahamiyatga ega vazifani bajaradi. Aloqa vositasi vazifasini bajarishda muhim vosita hisoblangan til va so'zlarni bog'lovchi

vositalarning oraliq bo'g'inlari aniqlanib, to'ldirilsa, aytish mumkinki, bunda ham til tizimining yana bir gradual munosabati tiklanadi.

6. Ko'makchilar ham ko'makchi fe'llar kabi leksik sathning mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlar guruhida "ma'noviy nomustaqillik" oppozitsiya belgisi ostida privativ ziddiyatda bo'ladi. Belgili a'zo sifatida yordamchi so'zlar guruhi ajralsa, belgisiz a'zo mavqeini esa mustaqil so'zlar egallaydi. Ko'makchi so'zlarning ko'makchi fe'llardan farqli xususiyati shundaki, ularning bir qismida siljish jarayoni hanuz davom etayotgan bo'lsa-da, tilda bu jarayonni to'la bosib o'tib, o'zining istiqbolli yo'lga tushib olgan birliklardir. Mustaqil so'zlarning ko'makchilashish jarayoni esa til qonuniyati sifati bardavom bo'laveradi. Ko'makchilarning so'zlarni bog'lovchi vositalar bilan birgalikda hosil qiladigan paradigmasi sintaktik vazifaga xoslangani bilan farqlanadi. Ko'makchilar predmetni predmetga yoki predmetni harakatga bo'lgan sintaktik munosabatini shakllantiradi. Gap bo'lagi jihatidan ular ikki bog'lanuvchi so'zning tobelanuvchi a'zosi tarkibida o'rinishib, to'ldiruvchi va hol vazifasida kelishga xoslaydi. Ko'makchi bilan shakllangan ism-kesimning ishlatilish o'rni nutqning tejamkorligi va so'zlashuv uslubi jarayoni bilan bog'liq hodisalardir.

7. Bog'lovchilar "teng va tobe munosabatni ifodalash" umumiy ma'ngosi ostida birlashadigan shakllar sirasida "leksik-grammatik vosita" tarkibiy unsuri bilan yordamchi so'zlar va grammatik qo'shimchalar sirasida oraliq o'rinni egallaydi. Bu umumiy grammatik ma'no "tobelash", "tenglash" oraliq grammatik ma'nolariga bo'linadi.

8. Yuklamalar o'z "bog'lash" ma'nosining susayganligi va buning evaziga "subyektiv munosabat" ma'nosi kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Yuklamalarning umumiy grammatik ma'nosi, ya'ni substansial qiymati "qisman bog'lash", "asosan subyektiv munosabat ifodalash" oraliq grammatik ma'nolariga parchalanadi.

9. O'zbek tilida ismni ism bilan bog'lash (qaratqich kelishik va egalik shakllari), fe'lni fe'l bilan bog'lash (ravishdosh shakllari), fe'lni ism bilan bog'lash (sifatdosh va harakat nomlari shakllari), nomustaqil kesimni mustaqil kesim bilan

bog‘lash (nomustaqil kesimlik shakllari), shuningdek, o‘zbekcha yuklamalarda ontologik ravishda bog‘lash ikkilamchi vazifasi mavjudligi sababli bu tillarda bog‘lovchilarga tizimiy (sistem-struktur) ehtiyoj yo‘q va turkiy tillardagi aksariyat bog‘lovchilar olinmalardir. Shuning uchun bog‘lovchilar hamisha oraliqda - ko‘makchi va yuklama ziddiyati orasida turadi. Bog‘lovchilarning yozma nutqimizda faollashuvi o‘zbek tilining qo‘llanilish doirasi va sohalarning jiddiy kengayishi bilan uzviy bog‘liq. Ma‘lum bir muddatdan so‘ng tilimizdagi bog‘lovchilar o‘zida alohida pragmatik ma‘noviy qiymat hosil qilishi ehtimoldan xoli emas.

10. Muayyan nutqiy voqelanishlarda ham bu tomonlar dialektik birlikda voqelanadi – bunda hech qachon ularning barchasi bir xil darajada bo‘lmaydi, lekin ma‘lum bir tomonning kuchayishi boshqa tomonlarning zaiflashishi hisobida sodir bo‘ladi. Ayrim bir tomonning to‘la mo‘tadillashishi birlikning bir turkumdan ikkinchi turkumga o‘tishiga olib keladi, uning yo‘qolishi esa so‘zni bir turkumdan ikkinchi turkumga ko‘chiradi.

11. So‘z turkumlari uchun umumiy bo‘lgan sintaktik va semantik tomonidagi o‘xshashlik asosida nutqiy muloqotda hosil bo‘ladigan rang-barang mushtarakliklarda o‘zaro almashinuvchi (birliklar) orasida pragmatik ma‘no asosida ixtisoslashishga intilish juda kuchli. Dialektikaning shakl va mazmun mutanosibligining lisoniy tizimda voqelanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bunday intilish til uchun umumiy taraqqiyot qonunlaridan biri bo‘lib, uning ta‘siri, xususan, milliy istiqoldan keyin o‘zbek tili davlat tili maqomini olgach, uning qo‘llanilish doirasining keskin kengayishi, unda xilma-xil uslub va muloqot turlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan sezilarli bo‘ldi. Shuning uchun rasmiy va ilmiy uslubning oralig‘ida turgan, mohiyatan milliy istiqoldan keyin shakllangan davlatchilik, qonunchilik sohalari pragmatikasida yordamchi so‘zlarning (ayniqsa, ko‘makchi va bog‘lovchilarning) va yordamchi so‘zli qurilmalarning ko‘plab ixtisoslashishini ko‘ramiz - soha yangi va o‘ziga mos vositalarini kundan-kunga oshirib bormoqda. Shu asosda mushtaraklik munosabatlarida turgan yordamchi so‘zlar orasida pragmatik qiymat (jumladan,



uslubiy xoslanish) asosida farqlanish yaqqol sezilib turgan va taraqqiyotga zamin boʻlayotgan hodisalardan biridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari:

1. Karimov I. Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 87.

### II. Darslik va o'quv qo'llanmalar:

3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006. -B.397.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Fan va Texnologiya, 2009. - B.310.
5. Зикриллаев Ф.Н. Феълнинг шахс, сон, хурмат категориялари системаси. –Тошкент: Фан, 1990. -111 б.
6. Иванов С.Н. Родословное древо – тюрок Абдул – Гази – Хана. Грамматический очерк. Имя и глагол. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 24.
7. Каримов С. Ўзбек тилининг бадийи услуби. – Самарқанд: СамДУ, 1992.
8. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М-Л., 1960. -С.328-329.
9. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Конспектив курс.- Бухоро: БухДУ нашри, 1999. -Б.216-220.
10. Курбонова М.М. Ҳозирги замон ўзбек тили. (Содда гап синтаксиси учун материаллар). -Т., 2002.
11. Матғозиев А. XIX аср ўзбек тилининг морфологияси.- Тошкент: Фан, 1977.
12. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

13. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили.- Тошкент: Фан, 1984, -Б.102.
14. Мусулмонова Н. Грамматик шаклларда категориал ёндош ва ҳамроҳ маъно. – Тошкент: Академ нашр, 2012.
15. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв.-Тошкент: Фан,1989.-191с.
16. Нурмонов А., Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда.- Тошкент: Ўқитувчи, 1993. -Б.94.
17. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Тошкент: Янги аср авлоди. 2001. -164 б.
18. Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. – Тошкент, 2013.
19. Расулов Р. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзларнинг семантик-грамматик хусусиятлари.- Тошкент: Фан, 1983. -Б.79-111.
20. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Самарқанд, 2008.
21. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. Уч томлик. I том (морфология).- Тошкент: Фан, 1988. -Б.197.
22. Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили.- Тошкент: Ўзбекистон, 1992. -Б.382-385.
23. Ўзбек тили грамматикаси. Икки томлик. I том. -Б.569.
24. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. - Б.430.
25. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. - Тошкент: Фан, 1984. -Б.234.
26. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. -Б.104.
27. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. - Тошкент: Фан, 1966. - 222 б.
28. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. -Б.133.

29. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Икки томлик. I том (фонетика, лексикология, морфология).-Тошкент: Фан,1966. -Б.360.

30. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. - Б.426.

31. Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. -Б. 405.

32. Юсупов К. Ўзбек тили адабий тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 1986. -Б.90.

### **III. Davriy nashr va to‘plamlar:**

33. Гузев В.Г., Насилов Д.М. Слово-изменяемые категории в тюркских языках и понятие грамматическая категория // Советская тюркология. -1981. -№3. С.23-35.

34. Иванов С.Н. Категория залога в причастии узбекского языка. В книге «Исследования по истории культуры народов Востока» // Сборник в честь академика И.А.Орбели. - М.:Л.,1960.-С.123-134.

35. НурмоновА., Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши// Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 4-сон.

36. Менглиев Б., Сайфуллаева Р., Маматов А. ва бошқ. Миллий тилшунослик мустақил ривожланиш йўлида // Маърифат, 2007 йил 21 май.

37. Лутфуллаева Д. Ўрнига кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1996. - №5. - Б.46-48.

38. Неъматов Ҳ.Ғ. Феъл, унинг форма ва категориялари // Ўзбек тили ва адабиёти. -1972. -№1, -Б. -39-47; №2, -Б. 42-50.

39. Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. -1986. -№6. -Б.42-45.

40. Эрназаров Н. Бириктирувчи боғловчилар синонимияси // Ўзбек тили грамматик қурилиши масалалари. - Самарқанд, 1985. -Б.69-70.

#### IV. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari:

41. Баҳриддинова Б. М. Феъл луғавий шакллари тизими. Феълнинг тур категорияси: Филол.ф.номз...дисс. –Самарқанд, 2002. -150 б.
42. Бурхонов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси: Филол.ф.номз...дисс. -Тошкент, 2008.
43. Исақов З. Ўзбек тилида сўз туркумлارининг ўзаро муносабати ва унда юкламаларнинг ўрни: Филол.ф.номз... дисс., - Фарғона, 2005.
44. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари: Филол фан. номз.... дис. автореф. –Тошкент, 1994. -25б.
45. Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фан. номз... дисс. –Бухоро, 1995. -144 б.
46. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол.ф.номз...дисс... - Самарқанд, 1994.
47. Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида эргаштирувчи боғловчили гапларнинг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2008. -25 б.
48. Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол.ф.номз...дисс. -Тошкент, 1993.
49. Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини ҳақида: Филол. фан. номз.... дис. автореф. –Самарқанд, 1993. – Б. 21.
50. Шаҳобиддинова Ш. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол. фан.док... дисс. автореф. –Тошкент, 2001. -50б.
51. Шукуров О. Ҳаракат тарзи шакллари парадигмаси: Филол. фан. номз. дисс. –Самарқанд, 2005. -126 б.

#### V. Internet resurslari:

1. <http://www.nuu.uz>
2. [comlinglab.nuu@scitnst.com](mailto:comlinglab.nuu@scitnst.com)
3. <http://www.ling.ustru.ru>

4. <http://www.google.uz>
5. <http://www.ziyouz.com>
6. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>
7. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>
8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
9. [www.google.ru](http://www.google.ru)
10. [www.lit.ru](http://www.lit.ru)